

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**AL -XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO`LIM
4-BOSQICH 404 - GURUH TALABASI**

QUTIMOVA MALOHATNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “O`spirin yoshidagi o`quvchilarda ma`naviy-axloqiy tarbiyani
shakllantirishda ota-onaning roli”



Urganch – 2013 yil

Mundarija:

Kirish.....	3
I.Bob.Yosh avlod tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ahamiyati.....	9
1.1. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya, uning pedagogik mohiyati, uni shakllantirishda ota-onaning burchi va vazifalari.....	9
1.2. Oilada o'spirinlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning o'rni.....	18
I. Bob bo'yicha xulosalar.....	32
II.Bob. O'spirin yoshidagi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish uslublari.....	34
2.1. O'spirin yoshidagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va o'quv muassasining o'zaro hamkorligi.....	34
2.2. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga oid so'rovnomalar o'tkazish va ularning tahlili.....	44
2.3. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishga oid trening mashg'ulotlar.....	50
II. Bob bo'yicha xulosalar.....	55
Xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar.....	60
Ilova	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Oila - insonning ilk bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar takomil topadigan va sog'lom e'tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargohdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor». [3,7b]

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz fikrlarida oilaning eng avvalo, e'tiqod va sog'lom dunyoqarash tarbiyasidagi benazir roli ta'kidlangandir. Shu sababli oila hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog'liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an'alarining, xususan, oilaviy o'zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o'rganish vazifasi turibdiki, ularning ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini tadqiq etish, qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tadbqiq etishni davrning o'zi taqozo etib turibdi. Chunki barqaror va mustahkam oilani shakllantirish, unda ma'rifatlilik an'alarini kuchaytirish, oilaviy urf-odatlarni zamon talablari asosida qayta o'rganib chiqib, eng nodirlariga nisbatan yoshlarimizda, ayniqsa, o'smirlik va o'spirinlik yoshidagi farzandlarimizda e'tiqodni tarbiyalashning ta'sirchan vositalarini ishlab chiqish jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishni ta'minlaydigan omillardandir. Bugungi kunda oiladay ta'sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e'tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy ustanovkalarni hosil qilish **dolzarb masalalardandir.**

Shu muqaddas dargohda ma'naviy-ahloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog'lom e'tiqodli, yangicha fikrlaydigan, komil inson qilib tarbiyalash bugungi islohotlar davrida O'zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik masaladir.

O'zbekiston o'zining mustaqilligini qo'lga kiritgach, asriy madaniy va ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz tiklanishi, har bir fuqaro ongida kelajagi buyuk yurti borligini anglash, Vatanga cheksiz mehru-muhabbat, sadoqat va o'z mehnatidan manfaatdorlik, shu orqali oila hamda nikohning muqaddasligi g'oyasini singdirish uchun qulay shart-sharoitlar paydo bo'la boshladi. Mustaqil davlat amalga oshirayotgan bunyotkorlik ishlari, tub islohotlari kundan kunga Vatanimizning buyuk kelajagiga ishonch, yurt tinchligi, farovonligiga aloqador muqaddas tushunchalarning mohiyatini anglash, ularni fuqorolar ongiga, birinchi navbatda, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbiga singdirishda esa oila institutining roli kuchli bo'lganligi uchun ham oilaga oid qadriyatlarga nisbatan o'smirlardagi e'tiqodni tarbiyalovchi shart-sharoitlarni o'rganish vazifasini dolzarb muammo sifatida kun tartibida turibdi.

Zero, yoshlarda milliy qadriyatlarimizga, jumladan, oilaviy an'analar, noyob rasm-rusmlarga oid e'tiqodni shakllantirish orqali ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaparvarlik xususiyatlarini tarbiyalash ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshiruvchi ta'sirchan vositalardandir. [17, 12b]

Ushbu tadqiqotda oilaning etnopsixologik xususiyatlarini, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ruhiy-ma'naviy jihatlarini, O'zbekistondagi oilalarda xos bo'lgan, asrlar mobaynida o'zini oqlab kelayotgan, bolaning to'g'ri tarbiya topib, kamol topishiga xizmat qilib kelayotgan udumlarni ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oilaviy an'analar, rasm-rusmlar va odatlar orqali o'spirin yoshidagi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish va dunyoqarashga aloqador tushunchalarni singdirishni ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniq bilish o'ta dolzarb va muhim vazifadir. O'spirinlik yoshidagi bola dunyo, uning sir-sinoatlari qatorida oila va nikoh, oilaga va insoniy munosabatlarga oid qadriyatlarning ma'no-mohiyatini bilish, nafaqat bilish, balki e'tiqod tariqasida qalbiga singdirishga ehtiyoj sezadi. Lekin ayni shu taraqqiyot davrida uning ongini chalg'ituvchi ziddiyatlar va noto'g'ri stereotipli ustanovkalar ham shakllanib qolishi, zararli odat va

ko'nikmalar shaillanib qolishi mumkin. Shu o'rinda oilaviy muhitning sog'lomligi, undagi azaliy qadriyatlarning milliy va umuminsoniy ma'naviyat tamoyillariga mosligi har bir o'g'il va qizda sog'lom dunyoqarash va oilaparvarlik sifatlarining kamol topishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonga xizmat qiluvchi oiladagi ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar va vositalar mustaqil ravishda maxsus tarzda o'rganilmagan, mavjud nazariy qarashlar empirik materiallarda asoslanmagan. Zero, yoshlarda, ayniqsa, o'spirin yoshidagi bolalarda yot g'oyalarga nisbatan, ijtimoiy xulq normalariga zid ustanovkalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni eng ilg'or va safarbar etuvchi g'oyalarni to'g'ri idrok qilish, oilaning jamiyatda tutgan muqaddas roli va uning Vatan, ona yurt tushunchalari bilan bog'liqligi ruhida tarbiyalash mohiyatan ijtimoiy psixologik hamda pedagogik muammodir.

Har qanday jamiyatda bo'lgani kabi bizning jamiyatimizda ham har bir alohida shaxs va yaxlit xalq manfaatlarini himoya qiluvchi, ularni birlashtiruvchi, yurt tinchligi va turmush farovonligini ta'minlovchi ilg'or g'oyalar borki, ularning har bir fuqaro tomonidan anglanganlik darajasi ana shu jamiyatning rivojlanishi tamoyillarini belgilaydi. Shu ma'noda shaxsdagi axloqiylik va e'tiqodlilikni ana shunday sog'lom dunyoqarashlarni, teran fikrlashni ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omil hamda shart-sharoit, deb e'tirof etish mumkindirki, uning mohiyatini ilk bolalikdan oila muhitida, undagi qadriyatlar doirasida, ota va onaning obro'si, bilimdonligi, o'rnak bo'luvchi shaxs sifatidagi ta'sirida ular ongiga singdirish psixologik ahamiyatga ega. Chunki oila - asrlar mobaynida xalq an'nalari, milliy rasm-rusmlar va odatlarni saqlab hamda namoyon etib kelayotgan noyob makondir. Shuning uchun ham Prezidentimiz I. Karimov oila va undagi an'analarga, milliy qadriyatlarimizga juda katta e'tibor berib, oilaning mustahkam bo'lishi, unda yosh avlod tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi eng avvalo ulardagi mustaqil fikrlash, sog'lom e'tiqod va teran dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlab, shu asnoda tarkib topadigan qarashlar tizimini millatning mafkurasi, deb ta'riflaydilar: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu

millatning kelajagini ko`zlagan va uning dunyodagi o`rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o`rtasida o`ziga xos ko`prik bo`lishga qodir g`oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».[7,11b]

Aynan mustaqillik yillarida yoshlarni oila va unda saqlanib kelayotgan azaliy qadriyatlar ta'sirida axloqan tarbiyalash muammosi ko`plab nazariy va empirik izlanishlar predmetiga aylanmoqda. Zero, bunday yondashuv o`tmish allomalarning falsafiy-g`oyaviy qarashlari, oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag`ishlangan o`gitlari ma'no-mohiyatiga mosdir. Sharqning buyuk mutafakkirlari sanalmish Ahmad al- Farg'oniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Bakr Muxammad ibn Al-Abbos Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino kabi o`nlab allomalar qarashlarida bola tarbiyasida eng muhim ijtimoiy omil sifatida oila, ota-onalarning dunyoqarashlari, tarbiya uslublari va bunda jamiyat e'tirof etgan normalarning oila qadriyatlariga muvofiqligi tamoyili o`z ifodasini topgan. Alohida ta'kidlash joizki, oxirgi yillarda tarix va madaniyatshunoslik, ma'naviyat va axloqshunoslik, adabiyot va dinshunoslik, falsafa va pedagogika yo`nalishlarida chop etilayotgan qator risola va kitoblarda, ilmiy va ommabop maqolalarda ham bu masalaning turli jihatlarini yoritilmoqda. Biroq, yuqorida ta'kidlangan oilaga tegishli an'analarga nisbatan shaxs e'tiqodliligining har bir jamiyat a'zosining ehtiyojiga aylantirilishiga imkon beruvchi ijtimoiy psixologik shart-sharoitlarini o`rganish o`z echimini kutib turibdi.

Bugungi kunda kasb-xunar kolleji o`quvchilarini oila va uni ma'naviy qadriyatlari ta'sirida har tomonlama tarbiyalash muammosi ko`plab nazariy va ilmiy izlanishlarni asosi bo`lib kelmoqda. Zero, bunday yondashuvlar ajdodlarimizning falsafiy-g`oyaviy qarashlari, oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag`ishlangan o`gitlarida yoritilgan. Bu kelajak avlodni tarbiyalashda oilaning, ota-onaning rolini belgilab beruvchi ma'naviy-axloqiy manbalar sanaladi. Ularda yuksak ma'naviyatni, axloqlilik va madaniyatni shakllantirishda oila muhitining, ota- onalarni rolini tadqiq qilish bitiruv-malakaviy ishining **dolzarbligini asoslash mumkin.**

Tadqiqotni maqsadi: Farzandlar tarbiyasida oila rolini pedagogik

asoslarini o`rganib, uni yo`nalishlarini, shakllantirish usullarini tadqiq qilish;

Oilaviy munosabatlarni turlari, shakllarini o`rganishga qaratilgan metodik ishlarni tadqiq qilish;

Farzandlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda oilaning o`rnini pedagogik-psixologik jihatdan asoslash;

Farzandlar tarbiyasida ota-onaning roliga oid ajdodlarimizning bu boradagi fikrlarini o`rganish, milliy-urf odatlarimizning mazmunini o`rganish, oilada sog'lom psixologik muhitni yaratish jarayonini nazariy va amaliy tadqiq qilish va xulosalarni umumlashtirish.

Tadqiqot vazifalari:

- Farzandlar tarbiyasida oilada ota-onalarning farzandlari bilan muloqoti jarayonining nazariy, falsafiy, pedagogik va psixologik jihatlarini o`rganish;

-“Oila”va “oilaviy munosabatlar”, “ota-ona” tushunchalarini falsafiy, pedagogik va psixologik jihatdan tahlil qilish;

-tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-uslubiy manbalarni tahlil qilish;

-tadqiqot metodlarini belgilash;

Tadqiqot ob'ekti: oilada farzandlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni.

Tadqiqotni predmeti: oilada ma'naviy- axloqiy tarbiyani olib borish yo`llari ,usullari, shakllari

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar oilada farzandlar bilan muloqot to`g`ri , maqsadga muvofiq tashkil qilinsa, axloqiy tushunchalar shakllantirilib borilsa, farzandlar bilan ijobiy munosabat shakllanadi, oilaviy tarbiya asoslari to`g`ri olib boriladi, farzandlarga oilada o`zaro hurmat, oilaviy qadriyatlarni mazmuni tushuntirib borilsa, ularda kelajakka ishonch, vataniga , ona tabiatga, mehnat ahliga muhabbatni, odob-axloq sifatlarini shakllantirish mumkin. Oilaviy tarbiyalash jarayonida samarali natijalarga erishish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosini O`zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimovning asarlari, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy tamoyil

va yondashuvlari, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda ta'lim sohasini rivojlantirishga oid boshqa Davlat hujjatlari, Sharq va G'arb mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy va ijtimoiy-pedagogik ta'limotlari, xalq og'zaki ijodi namunalari.

Bitiruv-malakaviy ish ustida ishlash jarayonida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

- Kuzatish;
- Pedagogik eksperiment;
- Oilaviy munosabatlarga oid xujjatlarini o'rganish va tahlil qilish;
- Anketa so'rovnomasi;

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi natijalaridan kasb-hunar ta'limi pedagoglari, shuningdek, ota-onalar, kasb-hunar kolleji farzandlari mustaqil tadqiqotlarni olib borishda foydalanishlari mumkinligi uning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Bitiruv-malakaviy ishining yangiligi sifatida farzandlar tarbiyasida ona-onalarning roliga oid ko'plab ilmiy adabiyotlar o'rganilib, oilaviy munosabatlarda ota-onalarning roli, ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda to'g'ri muloqotni, yondashuvni yo'lga qo'yishning pedagogik jihatlari o'rni tahlil qilindi va muayyan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Himoyaga qo'yiladigan holatlar:

Oiladagi farzandlarning ma'naviy -axloqiy tarbiyasi dolzarb pedagogik muammo ekanligi

Oiladagi ma'naviy -axloqiy tarbiyaning mazmuni

Farzandlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oilaning rolini o'rganish.

Oiladagi ma'naviy -axloqiy tarbiyani olib borish yo'llari shakllari, metodlari

Oiladagi ma'naviy -axloqiy tarbiyalash asosida farzandlarni komillik sifatlarini shakllantirish samaradorligi.

Tadqiqotning tuzulishi: ish kirish, II bob, 5 fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I.Bob. Yosh avlod tarbiyasida ma'naviy-axloqi tarbiyaning ahamiyati.

1.1. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya, uning pedagogik mohiyati, uni shakllantirishda ota-onaning burchi va vazifalari.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo'lgan ma'naviyatga bog'liq. Shu bois mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini aniq belgilab berdi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.[5, 65b]

Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotinigina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Har qanday mafkura kabi O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlool mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri ham jamiyatda ma'naviy-axloqiy qarashlarning ustuvorligiga erishish sanaladi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi.

Ma'naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollari belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omildir.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui hisoblanadi.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingan bo'lib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Ma'rifat shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Mafkura (arabcha «mafkura» - naqta nazar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy yuksaklash, ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarning rivojini ta'minlovchi, ularning maqsad va yo'nalishlarini aniqlashda etakchi o'rin tutuvchi g'oyalar tizimi.

Har uchala sohaning uzviy birligi asosida jamiyat ma'naviyati yuksaladi.

Ma'naviyat sohasida ijobiy echimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat». [4, 19-20b]

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi.

Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos

o`rin tutadi.

«Axloq» (lotincha – xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo`lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq - ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. [35, 201b]

Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezoni bo`lgan ma’naviy kamolotga erishib bo`lmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo`lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo`yiladigan talablar bu jamiyatda ma’lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida farzandlar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etishdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirish.
2. Ularda ma’naviy-axloqiy his-tuyg`ularni tarbiyalash va rivojlantirish.
3. Bolalarda ma’naviy-axloqiy xulq-atvor ko`nikma va odatlarini tarkib toptirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko`ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o`z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog`liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimlilik, mustahkam ma’naviy-axloqiy his-tuyg`u va xislatlarni shakllantirish, farzandlar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo`lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo`yish zaruriyatining yuzaga kelganligi

munosabati bilan tub o'zgarishlar yuz berdi.

Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi, Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o'zgalar va o'zining hayoti ma'nosini anglagan holda o'tkazish kerakligi haqida ko'plab rivoyat, hikmat va pand-nasihatlar mavjud.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta'limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida farzand shaxsida mas'uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik, mas'uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jinsiy tarbiya, mehnat tarbiyasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish, ayniqsa, zarurligini kundalik hayot tarzi yanada yaqqol namoyon etmoqda.

Tekinxo'rlik, narkomaniya, tamaki mahsulotlari va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, fahsh, johillik kabi salbiy illatlar ham hayotda uchrab turadi. Bu illatlar insonning axloqiy qiyofasinigina emas, balki o'zini ham emirib boradi. Inson ham ma'naviy, ham jisman halok bo'ladi. Shu bois insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlaridan ustun qo'yilishi zarur. Binobarin, ma'naviy-axloqiy tarbiya yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liqdir.

Ma'naviyat va axloqning mohiyati, uning me'yorlari va tamoyillari mazmunini tushunish farzandlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan fikr yuritishlariga imkon beradi. Natijada ular o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini ana shu nuqtai nazardan baholaydilar. Ma'naviy-axloqiy tushunchalar, baholash va muhokama yuritish asosida ma'naviy-axloqiy e'tiqod shakllanadi va nihoyat inson xatti-harakati va xulqi aniqlanadi. Ma'naviy-axloqiy e'tiqodga ega inson axloqiy me'yorlar, talablarni ongli bajaradi va ularga hurmat bildiradi. Lekin ma'naviy-axloqiy me'yorlar haqida bilimga ega bo'lish va uni tushunish hali e'tiqodni faoliyatga aylantiradi degan gap emas, ma'naviy-axloqiy bilimlar qachon hayotiy

tajribalarda qo'llanilib, farzandlar tomonidan ularning faoliyatida namoyon bo'lgandagina shakllangan deyish mumkin.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning voqea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar oilada tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, oilada farzandning ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa farzand tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab etishdan iboratdir.

Oilada xatti-harakatlar tizimi ma'naviy-axloqiy odatlarni tarkib toptiradi. Bu borada quyidagi talablarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ma'naviy-axloqiy tarbiya axloqsizlikka qarshi kurashdagi «kompaniya»ga aylanmay, maqsadga muvofiq, uzluksiz, tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur;
- bolalarda ma'naviy-axloqiy xislatlar va fazilatlarini tarbiyalash faol hayotiy vaziyatlar, axloqiy me'yorlar buzilgan holatlarda farzandlarning o'z nuqati nazarlarini ifodalashlari bilan amalga oshirilishi;
- shaxsda o'z idealiga intilishiga bo'lgan his-tuyg'ularini uyg'otishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish borasidagi ko'nikmalarni tarbiyalash;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir ishlarni farzandlarning tajribasi, tarbiya qoidalarini qabul qilishlari va bunga tayyorliklari, yaxshi va yomon xatti-harakatlarning mohiyatini tushunishlarini hisobga olgan holda amalga oshirish;

- farzandlarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar – insoniylik, insonga hurmat, mehr-saxovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi holatlarni tarkib toptirish;

- fuqarolik madaniyati, ongli intizom, jamoani hurmat qilish va boshqa juda ko'p ma'naviy-axloqiy sifatlar – boshqalarga g'amxo'rlik qilish, odamlarning g'am-tashvishi, quvonchini tushuna olish, o'z manfaatidan o'zgalar manfaatlarini ustun qo'yish, axloqiy me'yorlar hamda mavjud qonunlarga zid xatti-harakatlarni to'xtata olish, ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishda jamoa a'zolarining fikri bilan o'rtoqlashish, mas'uliyatni his etish kabilarga asoslanishi kerak.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda farzandlar xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan salbiy odatlar – jamoa joylarida qattiq gapirish, qo'pol so'zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o'ylamay gapirish, ishonli bo'lmagan hamda dalillar bilan tasdiqlanmagan voqea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhatini bo'lish, qo'lini silkitib gapirish kabilarning bartaraf etib borilishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Arzimas bo'lib ko'ringan, lekin shaxsning kelajak hayot va kasbiy faoliyatni tashkil etishda muvaffaqiyatga ega bo'lish yo'lida zarurli bo'lgan bu kabi odatlardan holi bo'lishda farzandlarga yordam ko'rsatish ota-onalarning muhim vazifalaridan sanaladi.

Ma'lumki, o'zbek oilasining va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud bo'lib, ota-bobolar va momolardan meros qolgan ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar zahirida tarkib topgan oiladagi ma'naviy tarbiyaning asosiga suyaniladi.

Yurtboshimiz ta'biri bilan izoh beradigan bo'lsak: “Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-birlariga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas... o'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarning, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir”.[11,13b]

Oilada bolalarning ruhan va jismonan sog'lom bo'lib o'sishiga oila muhitining ta'siri kattadir, chunki oilaviy muhit qanday bo'lsa, bolalar xuddi shu muhit ta'sirida ulg'ayadilar. Oila muhiti bolalarga ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan sog'lom qilib voyaga etkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki, ijtimoiy burchi hamdir. Shunday ekan har bir ota-onaning burch va vazifasiga mas'uliyat bilan yondoshib, oilada har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish bilan bir qatorda, bilimli, aql-zakovatli, udduburon, zukko, ruhan va ma'naviy barkamol insonni voyaga etkazish, shuningdek, oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyoligini ta'minlash, farzandni bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga erishish, giyohvandlik, maishiy nopoklik, axloqsizlik, nosog'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kiradi.

Bizning mentalitetimizda farzandlar ota-onalariga o'xshashga harakat qiladilar, ota-onalar esa o'zlari bilib bilmasdan zo'z xarakter va xususiyatlarini, orzu-havaslarini farzandlariga singdirib boradilar. Aynan ana shunday xarakter xususiyatlaridan biri bo'lgan mehr-muruvvatlilik ota-onadan farzandlariga o'tadi. Ayniqsa, o'smirlik davridagi bolalarga ota-onaning mehribonligi, doimiy nazorati va do'stona maslahati katta ahamiyatga ega. Ammo afsuski, ko'pgina ota-onalar farzandini "bebosh" qilib qo'ymaslik uchun bu ajoyib insoniy tuyg'udan cho'chiydilar. Ular bolaning tantiq, shaxsiyatparast bo'lib qolishidan tashvishlanadilar. Lekin juda ko'p salbiy xususiyatlar bola ota-onaning to'g'ri muruvvatidan, erkalashidan, e'tiboridan mahrum bo'lgan sharoitlarda vujudga keladi. Shuning uchun ham bola o'zining sevishlariga, o'ziga g'amxo'rlik ko'rsatishiga ishonch hosil qilishi ota-onaning muhim vazifasidir.

Har qanday farzand uchun, avvalo, ota-onaning mehribonchiligi, e'tibori zarur. Aksariyat jinoyatchi bo'lib qolgan bolalar ota-onalarining va yaqin qarindoshlarining mehribon emasligidan aziyat chekadilar. Bunday nosog'lom oila muhitida ruhan ezilib, har xil kasalliklarga chalinishi mumkin. Bundan tashqari, u

bekorchilik oqibatida, ichkilikbozlik, o'g'rilik, giyohvandlik, jinoyatchilik ko'chalariga kirib ketishi yoki turli jinoiy va diniy ekstremistik guruhlarining ta'siriga tushib qolishi mumkin. Oilada o'smir bola nima bilan doimiy band va qanday ishlar bilan shug'ullanishini dastlab aka-singillar yoxud opa-ukalar, keyinchalik ona sezib qoladi. Lekin oila tarbiyasi kabi katta mas'uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda bir narsani alohida uqtirish kerakka, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat, bu – Onadir.

Prezidentimiz aytganlaridek: “Oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida mo'tabar onalardir”. [9, 24 b] Shunday ekan, oila muhiti, qolaversa, bolalarning kelajagi, ularning ruhiy dunyosi ijtimoiy tasavvurlarining ijobiy va boy bo'lishi ko'p jihatdan onalarga bog'liq. Yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida ayrim oilaviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi ota-ona bilan o'smir bolalar munosabatlaridagi milliy xususiyatlarini sanab o'tish mumkin. Ma'lumki, o'zbek oilasi bolajon oila bo'lib, biz shuning uchun faqat o'smir yoshdagi bolalarning ota va onalariga munosabatini konkret vaziyatlar bilan bog'lash o'rinli deb quyidagi misollarni havola qilamiz. Biror ishni boshlash yoki biror erga borishda ham ota-onaning fikri bilan kelishish, ulardan ruxsat so'rash barcha bolalarga xos, qizlarning deyarli aksariyati ham otadan, ham onadan so'rashadi. Shahardagi o'g'il bolalarga onaning fikri, roziligi muhimroq. Shunisi xarakterlii, barcha toifada ham otadan ko'ra onadan ko'proq izn (rozilik) so'rash o'ziga xosligi ma'lum bo'ldi. Demak, ota-ona bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlarida onaning etakchi roli bolalar fikrida yaqqolroq namoyon bo'ladiki, bu onaning oilaviy yumushlarni boshqarishi, uyda ko'proq bo'lishi bilan bog'liqdir. Oilaviy kelishmovchiliklar ko'pgina biror bir muammo asosida kelib chiqishini inobatga olsak, ayrim oilaviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ota-ona bilan o'smir bolalar munosabatidagi milliy xususiyatlardan yana biri namoyon bo'ladi. Nisbatan olib qaralganda oilaviy muamolar yuzasidan ota-onalar o'z bolalari bilan deyarli fikrlashmaydilar, ba'zan fikr so'raydiganlar qishloq oilalariga xosdir. Jinsga oid oladigan bo'lsak, ota-

onalarning bolalaridan fikr so'rashi o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalarda ko'proqni tashkil etadi. Ularga nisbatan qizlarning mavqelari yuqoriroq. Bu albatta, bir tomondan o'smirlarga xos maksimalizm bo'lib, qizlarning onalari bilan emotsional jihatdan yaqinligini ko'rsatadi. Shuning uchun aynan qizlar oilada biror nizo chiqib qolsa, unga aralashib, uni to'xtata olishlariga ishonadilar.

O'smirlar bilan muomalada har bir ota-ona, kattalar, avvalo bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, iloji boricha ular bilan yumshoq va jiddiy munosabatda bo'lishlari, ayrim masalalarda ularning ham fikrlarini so'rashlari, gaplariga e'tibor bilan quloq solishlari kerak. Xullas, oila ma'naviyati tizimida o'zaro munosabatlarning tartib-intizom, ota-onalik burchining anglanish darajasining ahamiyati nechog'li kattaligini isbotlaydi. Oilaviy o'zaro munosabatlarda ba'zan kattalarning aybi bilan sodir bo'ladigan nizolar, tabiiyki, bola tomonidan idrok qilinadi, anglanadi, ma'lum bir bahoga (ijobiy va salbiy) ega bo'ladi. Ushbu baholar real vaziyatlarda salbiy xulq shaklida namoyon bo'ladi. Natijada bolaning oilaga, uning qadriyatlariga, istiqbolda oila qurishga bo'ladigan intilishlarida aks etadi. Ana shu barcha ko'rinishlarni hisobga olgan holda oilada ota-onaning farzandlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rnini baholashda xolislik bilan yondoshishlikni taqazo etadi. Oilaviy kelishmovchiliklar to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlar esa oiladagi munosabatlar ustivor bo'lgan oilalarda ijobiy, nosog'lom yoki notinch, qattiqqo'llik va asossiz tazyiq, ustun oilalarda esa salbiy holatlarga olib keluvchi tasavvurlar shakllanadi.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etar ekanmiz, barkamol insonni tarbiyalash, mehr-muruvvat tuyg'usiga boy shaxsni voyaga etkazish eng ustivor vazifalardan biri bo'lib qoladi, bu esa jamiyatimizda mehr-muruvvat madaniyatini rivojlantirishni taqazo etadi. Chunonchi, mehr-muruvvat madaniyatini o'zida shakllantira olgan har bir inson ruhan va jismonan sog'lom bo'ladi.

Shu jihatdan olganda barcha farzandlarimiz qalbida mehr-muruvvat va rahmdillik tuyg'ularini shakllantirish va kamol toptirish tuyg'ularini shakllantirish va kamol toptirish printsiptial mohiyatga ega bo'lib, bu vazifaning izchil amalga

oshirilishi ota-ona zimmasidir. Zero ota-onaning burchlaridan eng oliysi ana shu ma'naviy tarbiya riqali, qadriyatlar orqali, vatanga sodiq farzandlarning tarbiyalash va ularda vataniga, o'z xalqiga nisbatan faxrlanish tuyg'usini uyg'otishdir.

1.2. Oilada o'spirinlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning o'rni.

Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlab o'tganlaridek, "Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan". [7, 18b]

Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalari va ma'rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o'zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo'lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o'rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining (o'zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko'ramiz.

Chunonchi, o'zbek xalqining og'zaki ijodi va eposlarida mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga-sadoqat, do'stlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, hamfikrlilik, orastalik, go'zallik, oqillik, e'tiqod, hurmat-ehtirom, oila sha'ni va g'ururini himoya qilish, tug'ilgan joyiga muhabbat, ezgulikka intilish, halol va pok yashash ulug'langan. Bu voqelikni biz Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o'zbek xalq dostonlarining qahramonlari misolida ko'rishimiz mumkin.

"Qadimiy eposlarda ayollar bilan erkaklar teng ijtimoiy mavqega ega shaxslar sifatida gavdalanadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratli qilib tasvirlangan" . [33, 29b]

Sevib turmush qurish, sevgida vafodorlik, oilaviy totuvlik kabi insoniy xislatlar o'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek urug'lari va elatlarining xarakterli xususiyati sifatida saqlanib qolgan.

Ma'lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan "Qur'oni Karim" va Hadislarda ham oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari haqida qimmatli ma'lumotlar va shar'iy qonunlar yoritilgan. Islomda bo'lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan. Shariat bo'yicha nikohdan o'tishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo'lgan.

- 1.Nikohlanuvchilarning o'zaro roziligi.
- 2.Nikoh yoshiga to'lish.
- 3.Nikohni guvohlar ishtirokida tuzish.
- 4.Kelin uchun qalin va mahr to'lash.
5. Diniy e'tiqod birligi.
- 6.Nikohlanuvchilar yaqin qarindosh bo'lmasligi.
- 7.Tabaqa bo'yicha tenglik.
- 8.Nikohdan o'tuvchilarning ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi.

Bu shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlar bilan ta'minlagan.

Qur'oni Karimning oyatida oiladagi er bilan xotinning o'zni belgilab berilgan. Shariat hukmicha, er avvalo oilaning barcha moliyaviy va ma'naviy taraflariga javobgar, uni chetdan bo'ladigan har qanday xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Mana shularning evaziga va erkak kishi uchun fazilat hisoblanmish og'ir-bosiqlik, oila ro'zg'or tebratishdagi tadbirkorlik kabi sifatlar mavjudligi sababli u oilaning boshlig'i sanaladi. Yaxshi xotin esa diyonatli, erning uyini obod qiladigan va unga bir umr sadoqatli bo'lgan ayoldir. Qur'oni Karimdan er-xotin yoxud oilaviy munosabatlarga xos ibratli misollarni ko'plab keltirish mumkin.[23, 39b]

Hatto ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham nikoh va oilaviy burch masalasi muhim axloqiy o'rinda turgan. Zardushtiylikda ko'p xotinlilik qat'iy man etilgan. Ayni paytda hayotni bo'ydoq o'tkazish ham qoralangan. Balog'atga etgan qiz ota-ona va jamoaning ra'yini pisand qilmay, qasddan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan. Agar erkak kishi shu yo'lni tutsa, unga tamg'a bosilib badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog'lab yurishga majbur etilgan. "Avesto"da qayd qilinishicha, erkak avvalo uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va baquvvat bo'lmog'i lozim edi. Bundan tashqari, mazkur muqaddas kitobda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma shosharlikka yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq solish xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud. Shuningdek, unda nikoh va taloqning (ajrashishning) o'ziga xos mezonlari birma-bir keltirib o'tilgan. [21, 23b]

Zardushtiylikning axloq me'yorlari majmuida ayollar masalasiga ham alohida o'rin berilgan. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko'ra, jumladan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligiga, ota ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan.

Umuman Zardushtiylikda ham, Islomda ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo'lishi aytib o'tilgan. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko'ra, kelin va kuyov nasl nasabda, ijtimoiy mavqeda, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-

e'tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga yaqin bo'lishi ma'qul topilgan. Shu bois, Sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e'tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog'liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan nasihatnoma, pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilinadi.

Jumladan, turk olimi Yusuf Tovasliy to'plagan "Hikmatlar xazinasini"dagi kelin bo'luvchi qizga beriladigan ona nasihati kishining e'tiborini o'ziga tortadi. Unda ona turmushga chiqayotgan qiziga quyidagilarni nasihat qiladi: "Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla. Nasihat har kimga lozimdir, o'git hammaga zarurdir. Nasihat bilmaganga o'rgatadi, bilganni esiga soladi. Olloh bergan qonunga ko'ra, hayotga qadam qo'yadigan har bir qiz erga, har bir erkak ayolga muhtoj bo'ladi. Erkaklar ayol uchun, ayollar erkak uchun yaratilgandir. Hayot mavjud ekan, bu qonunni hech kim buza olmaydi". [18; 12 b] Shu sababli sen tug'ilib o'sgan va voyaga etgan uyingdan, yayrab-yashnab, o'ynab-kulib yurgan eringdan chiqib, o'zing bilmaydigan, notanish uyga borasan. Kelajakda bu uy senikidir. Sen eringga shunday xizmat qilki, ul ham senga qul bo'lsin. Sen unga er bo'li, u senga osmon bo'lsin !

Aytganlarimga amal qilsang ering bilan go'zal hayot kechirasizlar, mas'ud, baxtiyor va saodatli turmush ko'rasizlar. Bizlar ham (har ikki oila bizning ham, eringning ham oilasi) huzur-halovatda va baxtiyor bo'lamiz. Aks holda ikki oilada ham huzur-halovat bo'lmaydi. Sen o'zing bir jahannamda yashagandek bo'lasan.

Qizim! Endi senga aytadigan o'n o'gitinga quloq sol! Bularni doimo yodingda tut;

1.Qanoat sohibasi bo'l. O'z xolingga shukur qil. Ya'ni, ering uyga nimaiki olib kelsa, u xoh eydigan, xoh kiyadigan narsa bo'lsin, xushfe'llik bilan, go'zal odob bilan qabul qilib ol! Eringga tashakkur aytib, xushnudlik ko'rsat. Zero, baxtli

hayot kechirmoqning bir yoʻli oʻz holiga shukur etmoqlikdir, holiga shukur etmagan oʻz nafsini tiymagan kishida koʻngil huzuri, qalb rohati boʻlmaydi.

2.Eringga itoat qil, qil degan ishlarini qil, qilma deganini qilma! Yaʼni, ering bilan suhbatlashganda, muloqotda boʻlganingda itoatli boʻlishingni, uning soʻzlarini odob bilan tinglab ado etishingni sening soʻzlashib, quloq solishingdan tushunib oladigan boʻlsin. Shunda Alloh Taolo sendan xushnud va uyingiz saodat nuridan porloq boʻladi.

3.Eringning koʻzi tushadigan joylarga yaxshi eʼtibor ber!. Yaʼni, uyning ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut, shunday qilki, eringning koʻziga bir chirkin er koʻrinmasin.

4.Ust-boshingni toza tut. Ering faqat xushboʻyni sezsин, dimogʻiga yomon hid kelmasin. Chunki yomon hidlar ering koʻz oʻngida sening obroʻyingni tushiradi. Sendan irkanishga sabab boʻladi. Shuni yaxshi bilgilki, tozalik va zariflik eng yaxshi narsalardir, inson koʻziga xush koʻrinishlik shular bilandir.

5.Ovqatni vaqtida tayyorla. Yaʼni ovqatlanish vaqtini hech qachon kechiktirma. Ering qachon ovqatlanishga oʻrgangan boʻlsa, oʻsha paytda ovqatini tayyorlagin. U kelishi bilan darhol dasturxon sol. Shuni yaxshi bilginki, ochlik insonning tez jahlini keltiradi.

6.Uyqu vaqtini, uygʻonish paytini yaxshi bilib ol! Yaʼni, uning qachon uyquga yotish payti boʻlsa, oʻrnini tayyorlab qoʻy. Zero, uyqusizlik insonni xafaqon etadi. Asablarning buzilishi, xafaqonlik odamlarning ehtirosi, muhabbatini sekin-sekin soʻndiradi.

7.Eringni moli va ashyosiga juda eʼtiborli boʻl! Yaʼni, eringning mol dunyosini yaxshi saqla, ashyolarini avayla, muhofaza qilgil. Chunki uning mol-dunyosi senikidir. Eringni mol dunyosini isrof etmaslik ish bilish va qadriga etish demakdir.

8.Eringni qarindosh va yaqinlariga hurmat koʻrsat! Yaʼni, eringni qarindoshlari va yaqinlariga hurmat - uning eʼtiborini qozonmoq demakdir. Ularni hurmat qilish - eringni hurmat qilish demakdir. Bu esa qadr va eʼtibor qozonishdir.

9.Eringning sirini boshqalarga aytma! Ya'ni, eringning ba'zi sirlarini bilgan vaqtingda ehtiyot bo'lib, uni saqla, birovlariga aytib yurma. Agar aytib qo'ysang, uning g'azabini keltirib qo'yasan, ishonchini yo'qotasan. Bunda tuzayotgan oilangiz buziladi.

10.Eringni diniga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil! Hech qachon unga nisbatan itoatsiz bir harakat bo'lmasin. Agar bir shunday harakat bo'lsa, senga kin saqlab, oxiri dushman bo'ladi. U senga dushmanlik yo'lini tutsa, sen ko'p zarar ko'rasan va qo'lingdan hech narsa kelmaydi.

Ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodi va diniy g'oyalar hamda hikmatnomalar og'zaki tarzda avloddan-avlodga ko'chib sayqallashgan holda saqlanib kelgan bo'lsa, xalqimiz orasidan etishib chiqqan donishmand va allomalar esa ana shunday qimmatli ma'lumotlarni xalq an'analari va qadriyatlariga tayangan holda o'z asarlarida yoritgan holda ilmiy-madaniy meros sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar. Ulardan biri - jahon ilm-fani hazinasiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim Abu Nasr Forobiydir.

Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar" degan edi. [14, 109 b] Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligiga ishora qiladi. Uning g'oyalarida oilaning to'liqligi, unda qaror topgan sog'lom ma'naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi" yoki "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga

erishish maqsadida o`zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli jamoadir".

Forobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt saodatga erishish yo`llari haqida gapirib shunday deydi: Rahbarlar (er yoki xotin) "yomon odatlarni o`zida ifodalovchi o`tmishni ham o`zgartirmog`i kerak. Aks holda o`tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday engillik, o`zgarish va o`sish ham bo`lmaydi". Yoki "Baxt saodatga erishuv yo`lida nimaiki (bilim, axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo`lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur".

Biz tadqiqotlarimizda o`rganadigan muammo nuqtai nazaridan qaraydigan bo`lsak, Forobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o`rni, yoshlarning voyaga etishiga ta`siri to`g`risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o`zaro hamjihatlik, yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini echishda, undagi munosabatlarni to`g`ri yo`lga qo`yishda farovon turmush kechirish uchun dasturilamal bo`lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o`z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta`limot yaratmagan bo`lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo`yicha o`zining nuqtai nazarini ko`pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a`zolari o`rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir"."Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o`rta kirib olishi bilan ish to`g`ri bo`lmaydi". "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiros, g'am-g'ussa bo`lmaydi oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir".[15, 87 b] Beruniy o`rta Osiyo, Qadimgi Yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatlarining o`ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar

oila-nikoh, oiladagi o`zaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning "poligamiya" (erkak yoki ayol bir paytning o`zida bittadan ortik er yoki xotinga ega bo`lishiga yo`l qo`yiladigan nikoh shaklini bildiradi) turi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Masalan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud erkaklari biologik nuqtai nazardan otalikni o`rnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chog`ida o`qli kamonni homilador ayolga tantanali suratda bergan erkak bolaning otasi hisoblangan. Agar keyinchalik boshqa bir erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Bu ma'lumotlar izlanuvchilarda ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida oilaviy turmushning takomillashuvi, oila-nikoh munosabatlarining barqarorlashuvi va monogamiya oila turining kelib chiqishi tarixi haqida ilmiy tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi.

Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining etakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud. "Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmati o`z vazifasini a`lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o`rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o`z hohishiga mehnat tufayli erishgan".

Ushbu muammoga oid mulohazalar Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risoi al-ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo`jaligi" kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o`rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritgan ekan, avvalo oila boshlig`i erning oldidagi mas`uliyatli vazifalarga e`tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlarga ega bo`lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig`i bo`la oladi. Er-xotin munosabati tenglik hamjihatlik va o`zaro hurmat asosida qurilishi haqida to`xtalib, "Erkak kishi oila boshlig`idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog`i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo`ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir" deb yozadi Ibn Sino oilaviy

munosabatlar maromi oiladagi tinch totuvlik, mehr-muruvvat, oila g'ururi va sha'ni ko'p jihatdan ayollarga ham bog'liq ekanligi haqida ko'p yozgan. Jumladan, "Oila xo'jaligi" asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlarga ega bo'lmoqlari lozim, deb yozadi. Mazkur asarning "Ayollarning yaxshi fazilatlari haqida" nomli bo'limida ularning quyidagi fazilatlari bayon qilinadi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib, ko'p gapirmasligi lozim; u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak; injiq bo'lmasligi, o'z iffat va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yaxshi, o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulq-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi kerak ("Ibn Sino va tadbiri manzil".) [24, 73b]

Mutafakkir olimning sog'liqni saqlashga doir risolalarida jinsiy aloqalarning me'yorlari, unga qat'iy amal qilish, jinsiy aloqalarda o'zgarishning sabablari, ularni yo'lga qo'yish tadbirlari haqida ham qimmatli ko'rsatmalar berilgan. Uning fikricha, er-xotin ularni yodda tutishi va unga amal qilishi oilaviy munosabatlar barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Shuningdek, Ibn Sino "kitob ush-shifo" asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo'ladigan omillarni ham ko'rsatib o'tgan.

Bularga: 1. Agarda er va xotinlikdan dunyoga farzand kelmagan bo'lsa.

2. Agarda xotin eriga hiyonat qilib, uning e'tiborini pasaytirs.

3. Xotin kishi tarbiyasiz bo'lsa-yu, tarbiya olishni istamasa.

4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan xarakterli bo'lsa.

Ko'rinib turibdiki, Ibn Sino asarlarida oila-nikoh va oilaviy turmushda er-xotin munosabatlarini ibratli misollar asosida yoritgan hamda ayollar mavqei undagi munosabatlarda muhim o'rin tutishini asoslab bergan.

Kaykovus qalamiga mansub Qobusnoma asari (1082-1083 yillarda yozilgan) Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Qobusnomada qator ibratli va hayotiy pand nasihatlar bilan birgalikda "ishq va uning odatlari zikrida", "xotin olmoq zikrida" ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. "Ey farzand, to kishining ta'bi latif bo'lmaguncha oshiq bo'lmag'usidir, nedinkim ishq beshak ta'bi latiflikdan

paydo bo`lur. Har narsaki ta`bi latiflikdan paydo bo`lsa, ul beshak latif bo`lur". Bu erda insonning qalbi toza, pok va axloqan yuksak bo`lsa, uning ko`ngli, sifat va fazilatlari ham, hissiy kechinmalari ham sof va chiroyli bo`lishiga ishora qilingan. "Bas, agar oshiq bo`lsang shundoq kishiga bo`lgilki, ul ma`shuqalikka loyiq bo`lsin". Bunda bo`lg`usi er-xotinning nikohigacha davrda bir-birini ko`rib-bilib, sinab ma`shuqaning oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, bola tarbiyasini, uy-ro`zg`or ishlarini o`rniga qo`yadigan kamtarin va eriga sadoqatli bo`lishi nazarda tutiladi.[24, 56 b]

Ey farzand, agar xotin olmoq tilasang, o`z hurmatingni yaxshi saqlagil. Garchi mol aziz bo`lsa ham xotin va farzandingdan darig` tutma. Ammo xotinni pok dil, farzandni farmonbardor va mehribon tutgil bu ish sening qo`lingdadir. Bu o`rinda xotinga xos munosabatda bo`lish erning ixtiyorida ekanligi ogohlantirilgan.

Xotin talab qilsang, xotinni molini talab qilmagil, xotin pok nixod (toza tabiat va pok dil) bo`lsin. Kadbonu (uy bekasi va ishchan xotin)eriga do`st bo`lgay. Hayolig`, taqvador, tili qisqa, molni yaxshi saqlaguvchi bo`lsin. Debdurlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo`lur. Bunda esa bo`lg`usi turmush o`rtog`ini tanlashda erning oldidagi mas`uliyat va latif xotin bo`lishga xos fazilatlar bayon qilingan.

Agar sen xotiningga rashklik qilmasang, u senga samimiyat bilan munosabatda bo`lur. U senga ota-onang va farzandlaringdin ham mushfiqroq bo`lur va senga undin do`stroq kishi topilmas. Agar unga g`ayroq (rashk, qizg`anish) ko`rguzsang, senga ming dushmandin dushmanroq bo`lur va begona dushmandin hazar qilsa bo`lur, lekin undin hazar qilib bo`lmas. Bunda er-xotinning o`zaro munosabatlarini ziddiyatlarning shakllanishiga olib keluvchi sabablar va omillar haqida gap boradi.

Yusuf xos Hojibning mashhur asari "Qutadg`u bilig" (baxt saodatga yo`llovchi bilim)da er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e`tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarning oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o`rni va ahamiyati, er-xotin o`zaro munosabatlarining me`yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar

aytilganki, ular hozirgi oila turmushi va er-xotin munosabatlari uchun ham ahamiyatlidir. Asarda "Sen xotin olsang, o`zingdan quyisini ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo`lib qolasan". Asli, urug`i hamda zoti yaxshi bo`lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin.

Yuzi chiroyini istama, xulqi yaxshisini ista, fe`l-atvori yaxshi bo`lsa, sening yuzingni yoritadi. Fe`lu-atvori yaxshi bo`lsa, u to`kis bo`ladi. Fe`lu-atvori to`g`ri bo`lsa, juda munosib bo`ladi, xotin chiroyi xulqdir, buni bilgan biladi.

Agar yaxshi andishali ayol topishga muyassar bo`lsang, boy berma (darhol olgin) ey ezgu kishi andishali, pokiza bo`lsa, unday kishi asl bo`ladi. Sen xotinning andishali-aqlisini ista, ey dono, andishali aqli xotin topilsa - farosat, andisha, boylik, chiroy, nasl-nasab jam bo`ladi. "Sen xotinni qadrli tut, nima so`rasa muhayyo et". [24, 48 b]

Asarda xotin bilan bir qatorda er ham bilimdon, farosatli, aql-idrokli, zukko bo`lishi, oila tartibini saqlash va uni yuritishda intizomli (intizom o`rnatuvchi), uni kuzatib borishi kerakligi, oilaning iqtisodiy jihatdan to`kisligini ta`minlovchi, xotiniga va farzandlariga mehribon, xushmuomalali, to`g`ri so`z bo`lishi uning farovonligi va barqarorligini ta`minlovchi muhim omillar ekanligi alohida ta`kidlab o`tilgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) "Mahbub ul qulub", ya`ni "qalblar sevgilisi" va "Vaqfiya" asarlarida oilaviy turmushi bilan bog`liq er va xotinning vazifalari, burchlari, o`zaro munosabat-muloqot madaniyati, ularning muvofiqligi va nomuvofiqligi, uning oqibatlari haqida qimmatli nasihat va ma`lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Alisher Navoiy "Mahbub ul qulub" asarining 37 fasl "uylanganlik va xotinlar to`g`risida" ayolning fazilatlarini va uning oiladagi o`rni haqida quyidagilarni yozadi; "er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o`rtada boylik va saranjomlik bo`lur, uy bezagi undan va uylanganing (erning) tinchligi undan.

Husni bo`lsa, ko`ngilga yoqimli bo`lur, yaxshiligi bo`lsa, jon ozig`idir. Aqli bo`lsa, turmush intizomli va ro`zg`or kerak yarog`i tartibli va saranjomli bo`ladi. Ana shunday turmush o`rtog`i bo`lsa - g`am kulfatda sirdosh va hamdaming bo`lur, maxfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamrohing bo`lur.

Turmushdan har jaf o'lsa, hasratdoshing ul va osmondan har bir balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidan ul g'am chekadi.

Nosoz juft uy uchun ham ochiq va ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngil undan ozorlanadi, yaramas bo'lsa, ruh undan azob tortadi. Tili yomon bo'lsa kuyovning ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, erga yuz qarolik keladi. Mayxo'r bo'lsa, uy obodonligi yo'qoladi va buzuvchi bo'lsa uy ichi rasvogarlikka aylanadi".[20, 101b]

Alisher Navoiy mazkur asarida (11 qismida) har bir kishi uchun zarur bo'lgan yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida qanoat, sabr, tavozu' va odob, ishq, vaf o, hayo, yumshoq ko'ngillilik va bir qator yomon illatlar to'g'risida qimmatli maslahatlar beradi.

Alisher Navoiyning fikrlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, o'sha zamonlarda ham, hozir ham yigit va qizlarning o'zlariga har tomonlama mos turmush o'rtoq tanlashi, ularda zarur sifat va fazilatlar mujassamligi oilaning baxti va farovonligidir. Bir-biriga nomunosib er yoki xotin oilaning tanazzulidir.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) o'zining hayotdan olgan saboqlari, tajribalari asosida insonparvarlik, ijtimoiy hayot, oilaviy odob, adolat, halollik, sofdillik, to'g'rilik, rostgo'ylik haqidagi fikrlarini qiziqarli hikoyalar, rivoyatlar, pandu-nasihatlar yordamida bayon etgan. U salbiy axloqiy xislatlarni qoralaydi va ularning inson hayoti va jamiyat uchun katta zarar olib kelishini qator ibratli rivoyatlar bilan ko'rsatadi. Koshi-fiyy jamiyatda, odamlar o'rtasida va oiladagi o'zaro munosabatlarda axloq me'yori bo'lib, bu me'yorlar insonlarning xulq, fe'l-atvorlarini tartibga solib turadigan axloqiy talablardir, deb baholaydi. U ijobiy xislatlarning kishilarda bo'lishi shart bo'lgan insoniy fazilat deb tushunadi. Insoniy fazilatlar; sabr, hayo, iffat, pokizalik, sobitqadamlik, saxiylik, rostgo'ylik, shijoat, kamtarlik, xushyorlik, oliyhimmatlilik, diyonatlilik, ahdiga vafollik, andishalilik, izzat-hurmatni bilish, sir yashira olish kabi fazilatlarini birma-bir ta'riflab, ularning ahamiyati va oqibatlarini aytib o'tadi.

O`z davrining etuk ulamosi Rizouddin ibn Faxruddin er-xotin munosabatlarining sofliги naqadar muhim ahamiyat kasb etishini e`tirof etgan holda bu masalaga shunday yondashadi. "Go`zal muomalali bo`lmoq islom shariatining birinchi qoidalaridandir. Go`zal muomalaning eng lozim qismi xotin bilan bo`lajak muomaladir. Qur`oni Karim xotinlar bilan go`zal mushoirat etishga buyurgandir. Bunday muomala etuvchi urning dunyosi tuzuk, oxirati rohat bo`lur.

Xotinga go`zal muomala qiluvchi oliy tabiatli erlar shariatu aql tarafidan man etilgan narsalarga xotinlarini yo`llamaydilar va eng aziz bolasiga bo`lgan mehru-shafqati darajasida oqibat ko`rsatib, xotinlarini barcha mashaqqatdan saqlaydilar, qurbilari etmagan xizmatga buyurmaydilar".

Oilaviy hayot va undagi munosabatlar bobida Ahmad Donishning qarashlari alohida e`tiborga loyiqdir. U o`zining "Nodir voqealar" asarida oilaviy hayotning turli jabhalari nikoh odoblari, uylanish shartlari, ishq-muhabbat va sevishtanlarning odobi, qaynona-kelin nizolari, farzandlarga vasiyat, kasb-hunarlarning foydasi haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan. Uning fikricha, har bir inson muayyan yoshga etgandan keyingina unda uylanish va oila qurishga zarurat hosil bo`ladi. Bu davrga kelib inson oila nikoh munosabatlari, oilaviy hayot quvonchlari va tashvishlaridan boxabar, oilaviy baxt, farzand tarbiyasi, er-xotinlik va ota-onalik burchlarini tushunib etgandirlar. Ahmad Donish uylanish shartlariga o`sha davr uchun xos bo`lgan xislatli turmush quruvchilarning biron-bir kasb sohibi ekanligini, uy-joy sohibi bo`lishini, oila va oilaviy hayot masalalarini egallab olganliklarini nazarda tutadi. O`sha davrga xos uylanish shartlari (qiz tomonidan qo`yilgan) yangi oilaning farovonligi, to`kisligini ta`minlaydigan omillardan hisoblangan.

Ahmad Donish o`sha davrdagi uylanishning maqsadi va motivi o`ziga xosligi, shunga qaramay, xotinlarning ham erkaklarday izzat nafi borligi, ular o`zlarini erkaklardan kam tutmasligi, shuning uchun ularning haq-huquqlarini himoya qilish zarurligini aytib o`tadi. Ahmad Donishning qarashlarida ham oilaning baxti, oila farovonligi uning mustahkam va barqarorligi xotinga, uning axloqiy va ma`naviy kamolotiga bog`liqdir.

XX asr Turkiston jadidchiligidan ulkan namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat "Oila" nomli asarida farzandlar tarbiyasi, qizlar ham ilm olish kerakligi va bu sohada ota-onaning vazifalari, uylanish va uylanmaslik, uylanishda qanday xotin tanlash lozim, bo'lajak er-xotin birinchi marta nimalarga e'tibor berishi lozimligi, er-xotinning qanday yashamoqlari xususida oilaning maishati va idorasi, er xotinga xos sifat va fazilatlar to'g'risida hayotiy ma'lumotlarga tayanib ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. U "millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir, qacda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi", deb yozadi [13, 60-65b]

Fitrat mazkur asarining uylanishda qanday xotin tanlash lozim mavzusida "er xotin mushkulotdan iborat bo'lgan hayot safarida birga bo'lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg'u va umidsizlik damlarida g'amxo'r, saodat va baxtiyorlik chog'lari bir-birlariga hamdam bo'lishlari lozim. Shunday ekan, ular albatta, eng avvalo, bir-birlarini kamoli diqqat va tajriba yuzasidan imtihon qilishlari zarur. Xotin erkak holidan va yigit qiz ahvolidan yaxshigina xabardor bo'lib, keyin turmush qurishlari lozim" deb ogohlantiradi. Fitratning fikricha, uylanish uchun yana to'rt narsaga alohida e'tibor berish lozim: mol, nasab, husn va imonu-e'tiqod. "Uylanish orzusida bo'lgan er bilan xotinning mol (boylik)lari va nasablari taqriban bir xil bo'lishi lozim. Aks holda er bilan xotin bir-birlariga teng bo'lmay, hayotini mudom azobga qo'yadi".

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosidan bunday misollarni adoqsiz davom ettirish mumkin. Ko'rinib turibdiki, oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'siri masalasiga Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyolilari alohida e'tibor bilan qaraganlar. Ularning asarlarida oilaning muqaddasligi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, oila muqaddasligini belgilovchi muhim milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar ko'rsatib o'tilgan.

Ayniqsa, oilaning asosini tashkil etuvchi er va xotinga xos sifat va fazilatlarining shakllangan bo'lishi, ular oilaviy burch va vazifalarini sadoqat bilan

ado etishlari, bir-biriga mehribon va kechirimliligi eng muhim qadriyat sifatida e'zozlanadi.

Oila barqarorligini belgilovchi shaxslararo munosabatlar ta'siriga xos qimmatli ma'lumotlar hozirgi oilaviy turmush va uning barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

I bob bo'yicha xulosalar

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko'ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o'z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog'liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me'yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas'uliyatni his etishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarning e'tiqodga aylanishi va bu e'tiqodlarning tizimliligi, mustahkam ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u va xislatlarni shakllantirish, farzandlar tomonidan ma'naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a'zolariga bo'lgan hurmat-e'tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Demak, ma'naviyatli inson bilimli, ma'lum kasb-hunar sohibi, o'z Vatanining sodiq fuqarosidir. O'z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g'ururlana oladigan inson. O'z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go'zalliklaridan bahramand bo'ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etar ekanmiz, barkamol insonni tarbiyalash, mehr-muruvvat tuyg'usiga boy shaxsni voyaga etkazish eng ustivor vazifalardan biri bo'lib qoladi, bu esa jamiyatimizda mehr-muruvvat madaniyatini rivojlantirishni taqazo etadi. Chununchi, mehr-muruvvat madaniyatini o'zida shakllantira olgan har bir inson ruhan va jismonan sog'lom bo'ladi.

Shu jihatdan olganda barcha farzandlarimiz qalbida mehr-muruvvat va rahmdillik tuyg'ularini shakllantirish va kamol toptirish tuyg'ularini shakllantirish va kamol toptirish printsiptial mohiyatga ega bo'lib, bu vazifaning izchil amalga

oshirilishi ota-ona zimmasidir. Zero ota-onaning burchlaridan eng oliysi ana shu ma'naviy tarbiya rqli, qadriyatlar orqali, vatanga sodiq farzandlarning tarbiyalash va ularda vataniga, o`z xalqiga nisbatan faxrlanish tuyg`usini uyg`otishdir.

II.Bob. O`spirin yoshidagi o`quvchilarda ma`naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish uslublari.

2.1. O`spirin yoshidagi o`quvchilarning ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va o`quv muassasining o`zaro hamkorligi.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiyasi yoshlarni istiqlol g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar ctib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo`ldi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'lim va tarbiya to`g'risidagi qator mc'yoriy hujjatlar, jumladan O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko`tarishni taqozo etadi.

Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek. birinchidan, yosh avlodga o`zligimizni, muqaddas an'alarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko`p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo`yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo`lgan hurfiylikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurlimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya — milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O`zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

to`rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

beshinchidan, yosh avlodni ulug` ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash

ruhida tarbiyalash O'zbekistonda o'quvchi- yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Davlatimiz rahbari ko'rsatib berganidek, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar: birinchidan. ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga; ikkinchidan. insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga; uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga; to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga; beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Mazkur konsepsiyada taraqqiyotimizning ma'naviy-axloqiy negizi milliy va umuman insoniy qadriyatlar uyg'unligi e'tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalari, uyg'un yo'nalishlari belgilab olindi.

Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur. millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy ongillik, milliy odob, fidoyilik fazilatlari shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu konsepsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asoslilikini ta'minlaydi.

Konsepsiyada oilaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 1998-yil «Oila yili» deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytiradi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998- yil 26-martda qabul qilingan «Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora- tadbirlari to'g'risida» gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining 30-moddasida «Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari

bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o`rta, o`rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar», deb belgilab qo`yilgan. [1, 6 b]

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 3,2-bandida esa ta'lim oluvchilarning o`qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu «Oila, maktab, mahalla hamkorligi» bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiyasining asosiy maqsadidir. [2, 5b]

O`zbekistonda ro`y berayotgan o`zgarishlar «Oila, mahalla, maktab hamkorligi» yo`nalishidagi bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

«O`quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi» Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida oilaning vazifalari:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o`rnak bo`lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o`zaro g'amxo`r bo`lishni ta'minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash. oila a'zolarining o`z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo`lib yetishish;
- bozor munosabatlariga mos bo`lgan kasb-hunar o`rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;

- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;
- bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtayi nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish. ularga qo'shimcha ta'lim berish;
- farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o'z farzandlarining maktab. mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;
- ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;
- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axloqiy tomonlarini shakllantirish;
- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;
- sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;
- oila maktab va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha xatti- harakatlari uchun javobgardir;
- sog'ligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasbkor o'rgatishdan iborat.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib, savodini chiqarish, ilmiy, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli- joyli qilishdan iboratdir.

O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla. maktab hamkorligi jarayonida niahallaning vazifalari:

«Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona» degan naqldan kelib chiqib, kelajak avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayonini amalga oshirish borasida kichik Vatan bo'lmish mahallaning oldida quyidagi vazifalar turadi:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jaravonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatilishi;
- mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lishi;
- ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish;
- mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;
- ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi i xislatlarini singdirishni har tomonlama rag'batlantirish;
- yoshlar diniy mazhablar va sektalar. aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish;
- mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida erishilgan yutuqlar targ'ibotini amalga oshirish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;
- turli jamg'armalar xotin-qizlar qo'mitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar va ijodiy uyushmalarni yosh avlodni milliy istiqlool g'oyalari asosida tarbiyalash ishiga muammoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish;
- mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotchilarining imkoniyatlarini o'quv-tarbiya muassasalari moddiy negizini mustahkamlashga jalb qilish;
- mahalla hududida o'quv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlartashkil qilish-turli yo'nalishda iqtidori bo'lgan o'quvchi bolalarni maktablar tavsiyasiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;

- ilg'or pedagogik xodimlar, tarbiyachilarga mahalla imkoniyatlaridan kelib chiqib, har tomonlama yordam ko'rsatish;
 - farzandlariga ta'lim va tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan, namunali oilalar hayot tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida «Oila saboqlari» mashg'ulotlarini tashkil qilish;
 - mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'g'arak va «Usta-shogird» rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilish;
 - mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari kvotasining ajratilishiga erishish;
 - har bir yosh fuqaroda O'zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik hissini shakllantirish.
- O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari: bolalarga ta'lim-tarbiya berishda maktab va pedagoglarning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va Respublika rahbariyatining dasturiy fikrlari mazmunidan kelib chiqqan bo'lishi kerak, ya'ni:
- maktabda bolaga biron-bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish;
 - o'quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug'ullanishlariga yordam berish, ulaming bo'sh vaqtlarini tashkil qilish;
 - bolalarga ta'lim berishni ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta'minlash;
 - o'quvchilarning imkoniyatlari vaqiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo'yicha kasb asoslariga yo'naltirish va ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

- yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy tarbiyaviy, huquqiy, ma'naviy- ma'rifiy, ijtimoiy tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish;
- o'z hududidagi mahalla jamoalarining faolivatini tarbiyaviy maqsad yo'lida muvofiqlashtirish;
- tarbiyasi «og'ir», qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, oilalarga pedagogik yordam berish;
- bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirish;
- o'qishni va ishlashni xohlamaydigan, bezorilik yo'lga kirib ketgan o'smirlarni hisobga olib, ularga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda zarur choralar ko'rib, ota-onalar yig'inlarida muhokama qilish;
- tarbiya subyektlari bo'lmish huquqiy, tibbiy, ijodiy uyushmalar, yoshlar, tabiatni muhofaza qilish va «Ekosan», «Qizil yarim oy», barcha jamg'arma va jamoatchilik markazlari, ommaviy axborot vositalari, inson huquqlari bo'yicha milliy markazlar, kasaba uyushmalari, nodavlat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy boshqaruv idoralarining bola tarbiyasiga bo'lgan mas'uliyat va javobgarligini muvofiqlashtirish;
- turar joyda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi - maktab bo'lishiga erishish;
- o'quvchi-yoshlar, ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g'oyalarning kirib kclishiga qarshi murosasiz kurashishni tashkil etish;
- ta'lim muassasalari nizomlari asosida o'quvchilarning maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini va nizomda belgilangan o'quvchilar libosida ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishlarini ta'minlash:
 - mahallada, xotin-qizlar orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, o'smir yoshlarning dunyoviy bilimlarga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish;

- maktab negida pedagogik, huquqiy, psixologik. ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi «Ota-onalar universitetlari» faoliyatini tashkil qilish.

O`quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish bosqichlari

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko`zlangan maqsadga erishib bo`lmaydi.

Oila, mahalla, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo`ladi:

- ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi; hamkorlik jarayoni
- subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlarini ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro`li xotin-qizlarni. ota-onalarni jalb qilib, «Yosh onalar va otalar maktablari» faoliyatini yo`lga qo`yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich. Farzandning maktabgacha bo`lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o`ziga-o`zi xizmat qilish, harf tanish, qo`shiq aytish va raqs tushish, turli o`yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish ko`nikmalarini shakllanirish yuzasidan maktabga tayyorlash guruhlari, «Yakshanbalik maktablar» ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagi (6-11 yosh) maktab davrida bolalarning jismoniy. ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlashning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o`z xatti-harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo`sh vaqtini to`g`ri tashkil qilishni o`rgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo`lib, do`stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik xislatlarini

shakllaniirish.

To'rtinchi bosqich. O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va aql zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar guruhlari va jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishiga ko'maklashish, o'z xatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 4-bo'lim 6-bandida «Muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, sav- do-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiylarning vakillarini o'z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatuv jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi» deb belgilab berilgan.[2, 8 b]

O'zaro hamkorlik ishlarini boshqarish uchun joylarda o'z tarkibiga mahalla faollari, obro'li ota-onalardan, o'quv-tarbiya muassasalarining tajribali xodimlaridan, mahalla hududida joylashgan turli tashkilotlarning xodimlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik kengashlari tuzilishi kcrak. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga olgan vazifalardan kelib chiqib, o'z tarkibida turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik tashabbuskor guruhlarni tuzishi mumkin. Jamoatchilik kengashi ma'lum bir muddatga mo'ljallangan ish dasturini tuzish va uni mahalla yig'inida tasdiqlab olib, amalga oshirishi zarur bo'ladi.

Qayd etilgan tadbirlar davra suhbatlaridan. biron-bir mavzuga yoki muammoga qaratilgan kengash va majlislardan, anjumanlardan, mahalla ahlini birlashtiruvchi, ularni sog'lom turmush tarziga yetaklovchi ko'rik-tanlovlar,

musobaqalar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat tug'ilganda o'quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxona va idoralarning ta'lim- tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to'g'risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam bcrishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kengash mahalla hududida istiqomat qilayotgan, o'z farzandlari tarbiyasiga befarq ota-onalarga nisbatan davlat boshqaruv idoralari, huquqni himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda turli ma'muriy choralarni qo'llashi rnumkin.

Kengash tashabbusi bilan biron-bir dolzarb mavzuda favqulodda mahalla yig'inlari, o'quv-tarbiya muassasalarining pedagogik kengashlari yoki boshqa zarur tadbirlar tashkil qilib o'tkazilishi rnumkin. Kengash mahalla hududida o'zbek milliy tarbiya an'analarini tiklash, turli madaniy tadbirlar o'tkazish, bolalar va kattalarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish borasida maktablar, o'yin^ohlar, madaniyat muassasalari, sport inshootlari, o'smirlar klublari, maktabgacha va maktabdan tashqari muassasalar ishini muvofiqlashtiradi.

Kengash o'tkazilgan tadbirlarni tahlil qiladi, bu borada uslubiy maslahatlar tayyorlaydi va bu tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritadi. Kengash yosh avlodni tarbiyalashda mahalla, maktab va oila hamkorligi tasarrufiga kirgan masala, muammolarni mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalari, tashkilot hamda idoralari ish rejalariga, amaliyot dasturlariga kiritilishida ularning bahamjihatligini ta'minlaydi. Ushbu kengashlar maktab, tuman, shahar va viloyat miqyosida tashkil qilinishi va kengash a'zolarining barcha davlat hamda nodavlat tashkilotlariga, jamg'armalarga, jamoatchilik markazlariga va turli tashkilotlarga o'z vakolatlari doirasida murojaat qilishlariga imkoniyat yaratilishi kengash vazifalarini tezkorlik bilan amalga oshirish imkoniyatini beradi.

O`quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish uslublari

Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish. bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun hamda hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchiin oila, mahalla, maktab hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik lizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zartir.

O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kcrak. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari «Sog'lom avlod uchun», «Ota-onaga hurmat», «Odobingga balli», «Sog' tanda sog'lom aql», «Mehr chashmasi», «Qizlar ibosi», «Bir yigitga qirq hunar oz», «O'g'lim posbonim», «Hayot-ustoz, xalq - muallim», «O'zbekiston Vatanim manim!», «Milliy burch va mas'uliyat», «Oila saboqlari», «Oila etikasi», «Oila tinch - mahalla tinch», «Mustaqil hayot bo'sag'asida», «Askarlik - yigitlik maktabi», «Oila baxti - Vatan baxti», «Sportchi oila», «Oilamiz ohanglari», «Vatan ostonadan boshlanadi» kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.

2.2. Ta'lim jarayonida o`quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga oid so`rovnomalar o`tkazish va ularning tahlili

Barkamol shaxs tarbiyasi uzoq va uzluksiz davom etadigan murakkab dinamik jarayondir. Jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida ham kelajak avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilganligi tarixiy yozma manbalardan bizga ma'lum. Bugungi kunga kelib ham bu masala o'z ahamiyatini yo'qotgan emas va hattoki bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun

zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz».[12, 5b]

Demak, jamiyat taraqqiyoti uchun tarbiya masalasi muhim hisoblanar ekan, biz ham inson kamoloti uchun eng ahamiyatli sanalgan ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasini ilmiy muammo sifatida tadqiq etmoqchimiz. Buning uchun esa, avvalo, jamiyat taraqqiyoti bosqichlaridagi ma'naviy-axloqiy tarbiya muammosi hamda ularning umumiy va xususiy holatlarini o'rganmoqchimiz.

Ma'lumki, davlatimiz o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng barcha sohalar kabi ma'naviy sohaga ham katta e'tibor berildi. Buni bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarda, olimlarimiz ilmiy faoliyatlarida, o'qituvchi va o'quvchilarga yaratilayotgan imkoniyatlardan ham ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan, yurtboshimiz I.A.Karimovning bir qator asarlarida ham jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatdan yangilanishi va rivojlanishining asosiy negizlari keng yoritib berilgan.

Jamiyat taraqqiyoti uchun avvalo ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasiga asosiy e'tibor qaratilishi lozim va shuning bilan birga yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini oshirish darkor. Ya'ni, axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxslarsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun eng avvalo, tariximizga, millatimiz ma'naviyatining tarixiy ildizlariga bir e'tibor qaratish kerak. Chunki, Turonzaminda azal-azaldan inson ma'naviy kamoloti axloqiy fazilatlariga alohida e'tibor berib kelinganligini yoshlar yana bir bor tasavvur qilmoqlari lozim.

Ushbu sohada olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, har qanday jamiyatda ham ma'naviy-axloqiy tarbiya, yoshlarning axloqiy barkamollik darajasiga e'tibor doimo dolzarb muammo bo'lgan. Shu kungacha yoshlarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish jarayonida turli usul va vositalardan foydalanib kelingan. Vaqtlar o'tishi bilan, jamiyatda modernizasiya jarayoni yuz berishi tufayli ushbu usul va vositalar tobora takomillashib borgan.

Bugungi kunga kelib esa psixologiya fani tezkorlik bilan rivojlanishi natijasida, o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ham psixologik mashqlar va trening mashg'ulotlaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Bu borada biz ham tadqiqot ishimizda talabalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish jarayonida trening mashg'ulotlaridan foydalanishni maqsad qilib oldik va bu soha bo'yicha ma'lum ijobiy natijalarga erishdik. Quyida ularning bir varianti haqida to'xtalib o'tamiz.

O'spirin yoshidagi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda ota-onalar roli.

Oila insonning ilk bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilarlar, ezgu niyatlar, qadryatlar takomil topadigan va sog'lom e'tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargohdir.

Shu muqaddas dargohda ma'naviy-axloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog'lom e'tiqodli, yangicha fikrlaydigan, komil inson qilib tarbiyalash bugungi islohatlar davrida O'zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik masaladir.

Zero, yoshlarda milliy qadriyatlarimizga, jumladan, oilaviy an'analar, rasm-rusmlarga oid e'tiqodni shakllantirish orqali ularni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaparvarlik xususiyatlarini tarbiyalash ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshiruvchi ta'sirchan vositalardandir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oilaviy an'analar, rasm-rusmlar va odatlar orqali o'smirlar ongida sog'lom e'tiqod va dunyoqarashga aloqador tushunchalarni singdirishni ta'minlovchi ijtimoiy psixologik omillar va shart-sharoitlarni aniq bilish o'ta dolzarb va muhim vazifadir.

O'smirlik va o'spirinlik davri shaxs tomonidan qadriyatlar va manfaatli xulq shakllarini o'zlashtirish uchun eng qulay, psixologik ibora bilan aytilganda, **senzitiv davr** hisoblanadi va aynan shu davrda shaxsning dunyoqarashi, muhim ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan e'tiqodi deyarli shakllanadi.

Shu o'rinda bizning tadqiqotimiz predmetini tashkil etgan ikkita muhim tushunchalarga empirik ta'rif berib o'tamiz:

1. *O'spirinning oilaviy qadriyatlarga nisbatan e'tiqodi*» deganda, uning oilaviy hayot, uning qadriyatlari, normalari hamda oilaviy rollar to'g'risidagi tushuncha, tasavvur va bilimlarining anglangan va kundalik turmushda rioya qilinadigan, ehtiyojga aylangan shakllarini nazarda tutiladi. Bu e'tiqod mazmunida oilaviy o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladigan, lekin aslida azaliy an'analar, o'z qadrini yo'qotmagan xulq normalari, rasm-rusmlar mujassam bo'ladi. Real oila muhitida shunday qarashlar majmui ota-onalar va oiladagi boshqa ahamiyatli kishilar guruhi - referent guruh ta'sirida fasilitatsiya odisasi tufayli shakllanadi. Ijtimoiy fasilitatsiyada ishonuvchanlik va e'tiqodlilik farqlanadiki, birinchisi - shaxsning ongsiz moslanuvchanligi, muhitning qadriyatlariga nisbatan vaqtinchalik ustanovkalarida ifodalansa, *e'tiqodlilik* - *anglangan ustanovka* bo'lib, uning asosida shaxsning aniq ijtimoiy tasavvurlari, bilimlarga asoslangan baholari hamda shaxsiy g'oyalari yotadi. Biz tadqiqotimizda aynan shu anglangan bilimlar va shaxsiy ahamiyat kasb etgan ijtimoiy tasavvurlarga asoslangan e'tiqodlilikning oilaga va undagi ota-onaning sotsiometrik hamda referentometrik mavqelariga aloqador jihatlarini o'rganamiz. Bunda e'tiqod shakllantiruvchi alohida fenomen - «fikrlar lideri», bizning tajribamizda ota-onalarning fikrlariga e'tibor beramiz.

2. *Oilaparvarlik* - o'smir ijtimoiy tasavvurlari majmuidagi shunday tushuncha va bilimlar bilan bog'liq xususiyatlar tizimiki, uning zaminida ham eng avvalo, oilaning an'analari, udumlari, rasm-rusmlari hamda qadriyatlariga nisbatan ijtimoiy ustanovka yotadi. Empirik jihatdan oilaparvarlik o'smirlardagi oilaga nisbatan ijobiy ustanovkada, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarida hamda oilaviy burch, mas'uliyat, oilaviy hayotga ijtimoiy psixologik jihatdan tayyorgarlikda ifodalanadi.

Yuqorida ta'kidlangan empirik kategoriyalarni konkret izlanishda o'rganish maqsadida tanlab olingan tadqiqot ob'ektlarida aniqlovchi kuzatuvlar va so'roq-suhbatlar o'tkazildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida biz Xiva pedagogika kolleji

talabalari va ularning ota-onalari, jami 91 ta oilani oldik. Ushbu tadqiqot uchun tanlab olingan oilalarning barchasida kamida ikkita farzand bo'lib, ular to'liq oilalar toifasiga kiradi: shahar oilalarida o'rtacha 2 tadan farzand, ulardan bittasi o'spirinlik yoshida, qishloq oilalarida o'rtacha 4,5 ta farzand, ulardan 1-2 tasi o'spirinlik yoshida. Tadqiqotda jami 91 ta o'spirin yoshli talaba ishtirok etdi.

1-jadvalda biz o'rgangan oilalarning ijtimoiy-demografik xususiyatlarining o'rtacha hamda foizli miqdorlardagi ko'rsatgichlari keltirilgan. Ular 1-ilovada berilgan test-metodikaning «pasport» qismida to'plangan ma'lumotlarga asoslangan. Ya'ni, biz tanlagan oilalardagi kattalar bilan dastlab standartlashtirilmagan so'rov o'tkazgach, ularga ikkinchi navbatda ushbu so'rovnoma qo'shimcha sifatida alohida varaqa taqdim etildi. (1-ilova)

Raqamlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotda ishtirok etgan oilalarning tarkibi turli xil, lekin yashash sharoitlari umuman qoniqarli, barchasida o'spirin yoshidagi bolalar bor, shahar oilalarining aksariyati alohida nuklear shaklda, ya'ni faqat ota-ona va ular tarbiyasidagi bolalar mavjud, qishloq oilalari esa aksincha, ko'proq katta yoshli ota-onalar bilan birga yosh oila farzandi bilan yashaydi. Bu holat ham o'zbek oilalariga xos bo'lib, Xiva shahrida biz o'rgangan oilalarning deyarli barchasi nuklear toifali, Xiva tumani qishloqlarida ataylab tanlab olingan oilalarning barchasi bo'linmagan oilalar toifasini tashkil etdi.

Ushbu sohada olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, har qanday jamiyatda ham yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga e'tibor doimo dolzarb muammo bo'lgan. Shu kungacha yoshlarga tarbiya berish jarayonida turli usul va vositalardan foydalanib kelingan.

Vaqlar o'tishi bilan, jamiyatda modernizasiya jarayoni yuz berishi tufayli ushbu usul va vositalar tobora takomillashib borgan. Bugungi kunga kelib esa ta'lim texnologiyalarning tezkorlik bilan rivojlanishi natijasida, har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham pedagogik va tarbiya texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot obyekti sifatida biz Xiva pedagogika KXXKining Maktabgacha

ta'lim yo'nalishi 1 "A" guruh (31 talaba), 1 "B" gurihi (33 talaba) va 1 "V" guruhlari (27 talaba) talabalarini tanladik. (jami 91 talaba). Biz tanlagan talabalar bilan standartlashtirilmagan so'rovnomaga o'tkazdik. (1-ilova)

Ma'lumki, og'zaki javoblar yoki yozma matnlarda u yoki bu fikrlar yoki tasavvurlarning qaytarilish miqdori kontent-tahlil metodi yordamida aniqlanadi. Bunda javoblarda u yoki bu fikrning, sifat yoki obyektning xususiyatini bildiruvchi so'z-iboralarining necha marta qayd etilganligining absolyut va nisbiy qiymatlari aniqlanadi.

Absolyut qiymat u yoki bu tushunchaning o'rganilayotgan talabalar javoblarida necha marta qaytarilganligining aniq soni bo'lib, nisbiy qiymat - ana shu guruh fikridagi maksimal qaytarilishi mumkin bo'lgan songa nisbatan necha marta qaytarilishining foiz hisobidagi qiymatidir. Bu qiymatni aniqlash formulasi quyidagicha:

$$F_{(abs)} = \frac{K(A)}{K(um)} \times 100\% \quad \text{bu yerda}$$

$F_{(abs)}$ - tushunchaning (sifat kategoriyasining) nisbiy qaytarilishi qiymati;

$K(A)$ - konkret tushunchaning necha marta qaytarilganligi qiymati;

$K(um)$ - o'sha to'plamda qayd etilishi mumkin bo'lgan kategoriyalar soni.

So'rovnomaga natijalari ma'lumotlarning bir tomondan rang-barangligini, lekin ikkinchi tomondan, ularning o'rtasida ma'lum umumiyliklar borligini ko'rsatdi va buni biz kontent-tahlil metodi yordamida talil qildik. 91 ta talabaning bildirgan fikrlari tahlil qilish eng ko'p marotaba qaytarilgan fikr va takliflarning qaytarilish marotabasini oddiy statistik yo'l bilan hisoblashni talab qiladi.

Shunday qilib, avval kontent-tahlil usulida «Ma'naviy-axloqiy tarbiya» tushunchasi bilan bog'liq kategoriyalarni tahlil etdik. Dastlab mazmuniga e'tibor bermagan xolda kontent-taxlilning birliklari sifatida bildirilgan fikrlar, javoblar sonini hisoblab chiqdik.

So'rovnomaga natijalari tahliliga ko'ra (2-ilova)

1. *Sizningcha, "axloq" nima?* – muomila qilish – 27 %

2. *Sizning fikringizcha “ma’naviyat” tushunchasi qanday lug’aviy ma’noni anglatadi. – fazilatlar majmuasi – 30%*
3. *Shaxsan siz “ma’naviyatli shaxs” deganda kimni tushunasiz. – yetuk, komil, mukammal – 29 %*
4. *“Ma’naviy barkamol shaxs” tushunchasi O‘zbekiston respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan qanday tariflangan. (Asarlari nomini keltirish) – Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch – 36 %*
5. *Sizningcha axloqli shaxs qanday fazilat va xislatlarga ega bo‘lishi lozim. – hammaga o‘zining xulqi bilan namuna bo‘la olishi lozim – 38 %*
6. *O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi g‘oyalari qanday asosiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan – o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish – 40 %*
7. *Siz o‘zingizni axloqli shaxs deya olasizmi? – qisman – 35 %*
8. *Ta’lim jarayonini har tomonlama barkamol, ma’naviy-axloqiy tarbiyali shaxsni shakllantirishga yo‘naltirish zarur deb hisoblaysizmi – ha – 43 %*
9. *Shaxs rivojlanishi deganda nimani tushunasiz – har tomonlama yetuk – 30 %*
10. *Oila muhiti farzandlarning barkamol, har tomonlama yetuk, axloqli bo‘lib shakllanishida muhim rol o‘ynaydimi? – ha – 32 %*

2.3. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishga oid trening mashg‘ulotlar

Xalqimizning milliy ongi, milliy g‘ururi, milliy iftixori o‘shib, ma’naviy dunyosi kundan kunga boyib bormoqda. Bu esa mustaqil davlatimizning ma’naviy asosini yanada mustahkamlashga imkoniyat yaratib bermoqda. Lekin bundan ma’naviyat sohasida hech qanday muammo yo‘q degan xulosani chiqarib bo‘lmaydi. Bugungi kunda erkin fuqaro ma’naviyati, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. “Boshqacha qilib aytganda, - deydi Prezidentimiz – o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir

bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, erkin jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak".

Hozirgi davrda yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish mustaqil fikr yuritish imkoniyatlarini shakllantirish muammosi respublikamizning ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Ushbu muammoning dolzarbligi to'g'risidagi omil mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning yoshlar muammosiga bag'ishlangan har bir chiqishida intervyu va fundamental asarlari g'oyasida o'z ifodasi nitopgan. Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqida ham keng jamoatchilikning diqqat e'tiborini ushbu mavzuga qaratgan holda shunday fikrlarni muhokamaga tashlagan edilar: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan qilib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasiz bo'ladi. Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'liga, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir". Zero, O'zbekistonni "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan hamda "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan ko'zlagan asosiy maqsadi bu "jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirishdan iboratdir".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-moddasida ham har bir insonning mustaqil fikrlash huquqiga egaligi qayd etilgan. Chunonchi, "har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega".

Dunyo miqyosidagi hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayot kishilik jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikrlash, yangi texnika va texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb-etadi. Yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o'rgatish tufayli ular kelgusida o'z oldilarida vujudga kelishi kutiladigan muammolarni ijodiy ravishda hal qilish orqali xalq xo'jaligining rivojlanishiga, Respublikamizning ilg'or texnologiyali jahon davlatlari qatoridan munosib o'rin egallashiga hissa qo'shishga erishish mumkin.

Davlat va jamiyat tomonidan yoshlarning, ta'lim muassasalari mutaxassislari hamda ota-onalarning oldiga qo'yilayotgan vazifalar bevosita psixologiya sohasida yaratilayotgan turli psixodiagnostik metodlar (trening, diagnostika, psixoterapevtik suhbatlar, intervyu, anketa usuli, test usuli) yordamida amalga oshiriladi.

Treningni rivojlanish tarixi.

Psixolog N.Yu.Xryaheva 1982 yil LDU ning ijtimoiy-psixologiya kafedrasida asistent bo'lib ishlash davrida, guruhlarda ijtimoiy-psixologik treninglarni o'tkazish bo'yicha Leyptsiklik mutaxassislar professor Manfred Forverga va uning turmush o'rtog'i Traudl Albergga shogird bo'lib o'tgan. Vaqt o'tgach ijtimoiy-psixologik treninglar o'tkazish bo'yicha Bird o'z tajribasini psixologlarga o'rgata boshladi. Bu psixologlar treningni o'z psixologik faoliyatlari davomida muhim deb hisoblashardi. U aytib berayotgan perspektiv-yo'naltiruvchi treninglar, senzitivlik treninglari L.A.Petrovskaya va Yu.N.Emelyanovlar uchrashuvlaridagi tajribalardan farq qilar edi. Ular o'tkazadigan treninglar eng avvalo ishlab chiqarish, maktab, sog'liqni saqlash, tibbiyot tashkilotlari, davlat boshqaruvidagi rahbarlar, majburiy boshqaruv uyushmalari, korxona tashkilotlari xodimlarining kompetentligini oshirish maqsadida yo'naltirilgan treninglardir. Keyinchalik asta-sekin boshqa ko'plab kasb egalari bilan trening o'tkazish tajribasi yig'ila boshladi. Trening sohasi mutaxassislarning metodik tayyorgarligi borgan sari rivojlanib bordi. Ular ko'plab seminarlarga bora boshlashdi va boshqa trenerlarning yondashuvlarini ham o'rganib chiqib, o'zlarining tizimlashgan trening dasturlarini ishlab chiqishdi.

1990 yilda ular S.I.Makmanov bilan birgalikda kreativlik treninglari dasturini ishlab chiqishni boshladi. Bu vaktda S.I.Makmanov treningning asosi bo'lmish nazariy va metodik ishlanmasi bilan shug'ullanayotgan va bu metodlar barcha soha mutaxassislari qo'llanilganda muvaffaqiyatga erishishini bilardi (1998 yil jahonga uning "Trening psixologiyasi" monografiyasi chiqdi). Biroz o'tgach ular o'ziga ishonch treningini o'tkazish dasturini ishlab chiqishdi. S.I.Makmanov treningda kam uchraydigan o'zaro ta'sirlar, komanda va

boshqalarning shakllanishi muharriri bo'lib qoldi. E.Sidorenko juda noyob trening dasturi muharriri bo'lib, bu trening shaxsga ta'sir etish va begona fikrlarga nisbatan, ta'sirlarga nisbatan qarshilik ko'rsatish ta'sirini o'rgatar edi. Bu trening dasturlari yangi trening dasturlarini yaratishdagi bir yo'nalish bo'lib, ular Trening instituti trener va konsultantlari bilan birgalikda o'tkazilar edi. Eng asosiysi esa, Trening instituti 1993 yil mart oyida tashkil topgan bo'lib, uning tashkil etilishi asosidagi fikrlar bu tashkilot bilan birgalikda rivojlanar va asosiylari uning tashkilotchilari tomonidan boshidayoq anglab etilgan va shakllantirilgan edi. Ular qilib bo'lmaydigan ishni qilishga urinishdan, birovlariga nimanidir o'rgatishdan, eng asosiysi o'zlari bilmaganni o'rgatishdan yiroqdirlar. Trening instituti trening sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash yo'nalishidir. Avvalgidek psixologlar orasida 15 kunlik trening sohasidagi metodik tayyorgarlik taniqli va dolzarbdir. Trening Institutida o'z malakasini oshirish sohasidagi yangi bilimlarni egallash maqsadida 3 bosqichdan iborat bo'lgan metodik mashg'ulotlarni o'qib o'rganishadi. Bolalar o'smirlar bilan ishlovchi psixologlar uchun "Psixodrammaga kirish" kabi mashg'ulotlar mavjud.

Trening instituti trening sohasida juda ko'plab izlanishlar olib borish natijasida bu sohaga anchagina yangilik va o'zgarishlar kiritdi. Ularning ishi asosan trening o'tishning nazariy va metodik asosini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, shuningdek ularni amaliyotga tatbiq qilish uchun zarur vositalarni topishga ham harakat qilishmoqda. Shu bilan birgalikda psixogimnastik mashqlarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik qo'llanmalarni ham yarata boshlashdi. Ular sirasiga 2001 yil Sankt-Peterburgda chop etilgan, 3 bobdan iborat "Treningda psixogimnastika" deb nomlangan kitob ham kiradi. Bu kitobda institut xodimlari tomonidan, ko'p yillar mobaynida to'plangan trening, psixologik mashqlar, turli xil chet el adabiyotlaridan olingan va o'ylab topilgan trening mashg'ulotlari jamlangan. Ularning deyarli barchasi ijtimoiy psixologiyaga taalluqli bo'lib, 1983 yildan boshlab Leningrad, Moskva, Toshkent, Olma-Ota, Perm, Rostov-Don, Karaganda, Barnaul, Ijevsk, Chelyabinsk, Pskov, Kaliningrad va boshqa ko'plab

shaharlarda o'tkazilgan. Barcha mashqlar muharrirlar tomonidan tajribalarda sinalgan bo'lib, ular yaxshi natijalar bergan.

Bugungi kunda hamma uchun umumiy qabul qilingan "trening" tushunchasi yo'q, shuning uchun bo'lsa kerak, psixologik amaliyotda uning ma'nosini anglatuvchi ko'plab metod, shakl va uni anglatib beruvchi manba hamda vositalar kabi tushunchalar kelib chiqadi.

Trening termini (ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, train, training) ko'plab ma'nolarga ya'ni: o'qitmok, tarbiyalamok, (trenirovka) mashq qilmoq kabi ma'nolarga ega. Xuddi shunday ko'p ma'nolilik treningning ilmiy talqiniga ham mos keladi.

Trening insonlarda mavjud bo'lgan xulq-atvori va faoliyatini boshqaruv modelini qayta dasturlash vositasidir.

Trening shuningdek tashkilotni rejalashtirilgan faolligini oshirish uchun, kasbiy bilimlarini oshiruvchi, ko'nikmalarini yaxshilashga yo'naltirilgan, yoki tashkilotning maqsadli faoliyati talablariga mos keluvchi attityudlar modifikatsiyasi va jamoatning ijtimoiy xulq-atvorini tuzatish uchun zarurdir.

Psixologiya tarixida trening o'qitishning eng keng tarqalgan shakli faol ijtimoiy-psixologik treninglardir. L.A.Petrovskaya ijtimoiy psixologik treningga ta'rif berar ekan, uni quyidagicha izohlaydi: «Trening - shaxslararo munosabatlardagi bilimlar, ijtimoiy ustanovkalar, ko'nikma va tajribalarni rivojlantirishga qaratilgandir», shuningdek «Muloqotda kompetentlikni rivojlantirish vositasi hamdir».

G.A.Kovalev ijtimoiy-psixologik treningni ijtimoiy-didaktik aktiv yo'nalishdir deb hisoblaydi. B.D.Paro'gin guruhiiy maslahatlar metodlari haqida shunday deydi: Ulardan guruhiiy konsultatsiya metodlarini aktiv o'qitish uchun foydalaniladi. Hayotiy ko'nikmalarni, muloqotchanlik sohasida bilim berishni, kasbiy faoliyat sohasida maslahatlardan tortib to yangi ijtimoiy hayotdagi rollarni, «Men» kontsepsiyasini korrektsiya qilishni, o'z-o'ziga baho berish tizimini kuchayishini ta'minlaydi.

Treningda “psixologik ta’sir” termini qo’llaniladi. Ilk marotaba muloqotchanlikni oshiruvchi terminlar (AQSh) K.Levin shogirdlari tomonidan Betelda o’tkazilgan treninglarda qo’llanilgan va ular T-gruppa deb nomlangan. Ular asosida quyidagi g’oya yotardi: ya’ni ko’pchilik insonlar guruhlarda yashaydi va ishlaydi, ammo ko’p hollarda ularda qanday ishtirok etayotganlarining hisobotini bermaydilar, atrofdagi odamlar ularni qanday ko’rayotganligi va ularning reaksiyalari aynan qilayotgan xulq-atvorlariga javoban K.Levin samarali o’zgarishlarni amalga oshirish uchun individual holatda emas, balki guruhiiy holatda trening o’tkazishni ma’qul deb topadi va inson o’zini o’z ko’zi bilan emas, balki atrofdagilarning ko’zi bilan ko’rishga harakat qilishi kerak deydi.

K.Levin shogirdlarining omadli faoliyatlari natijasida AQShda treningning milliy laboratoriyasiga asos soldi. Bu laboratoriyada ko’plab ko’nikmaviy treninglar yaratildi.

Ijtimoiy-psixologik treninglar jahon amaliyotida keng tarqaldi.

Ilk bu sohada taniqli nazariy, metodologik kitob L.A.Petrovskiy tomonidan 1982 yilda yaratildi. Bu metoddan bolalar, onalar, professional ijtimoiy guruhlar bilan, tashkilot va korxona boshqaruvchilari bilan ishlashda aktiv foydalanib kelinmoqda. (4-ilova)

II bob bo’yicha xulosalar

Mamlakatimizda keyingi yillarda qabul qilingan ta’lim va tarbiya to’g’risidagi qator mc’yoriy hujjatlar, jumladan O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va maktab nufuzini yanada yuqori pog’onaga ko’tarishni taqozo etadi.

Zero, ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek. birinchidan, yosh avlodga o’zligimizni, muqaddas an’analарimizni anglash tuyg’ularini, xalqimizning ko’p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo’yilgan oliy maqsad va

vazifalarni singdirish;

ikkinchidan, jam iyatimizda bugun mavjud bo`lgan hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurlimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya — milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O`zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

to`rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

beshinchidan, yosh avlodni ulug` ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O`zbekistonda o`quvchi- yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Umumiy xulosalar

Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo`ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham ta`kidlab o`tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o`zi tarbiyalangan bo`lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham ma`nan sog`lom ota-onadan sog`lom farzand dunyoga keladi. Prezidentimiz I.A.Karimov sog`lom avlod to`g`risida fikr yuritib: «Sog`lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog`lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi-fikri sog`lom, imon-e`tiqodi butun, bilimli, ma`naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman», deb ta`kidlaganlar. Ushbu fikrni har bir ota-ona, pedagog, tarbiyachilar tushunib yetmog`i va o`ziga shior qilib olmog`i lozim.

Shaxsan prezidentimizning yuqoridagi qimmatli fikri va Sharq mutafakkirlarimizning bizga qoldirgan boy milliy-ma`naviy merosi tug`ilajak farzandning har tomonlama sog`lom bo`lib dunyoga kelishiga ta`sir etuvchi omillarni quyidagicha ifodalash kerakligini ko`rsatmoqda:

- ota-onaning o`zaro bir-biriga bo`lgan hurmati bo`lishi lozim;
- ona tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan turli adabiyotlarni mutolaa qilishi kerak;
- onaning to`g`ri va kaloriyali ovqatlanishiga e`tibor berilishi lozim;
- onaning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan va aqlni charhlaydigan eshittirish va

ko`rsatuvlarni kuzatib borishi;

- oilada o`zaro ma`nili suhbatlarning bo`lib turishi va h.k.

Tug`ilajak farzandning nosog`lom bo`lib dunyoga kelishiga ta`sir etuvchi omillar:

- ota-onaning spirtli, giyohvand moddalar iste`mol qilishi;

- onaning och yurishi;

- oilaviy janjallarning ko`p bo`lishi;

- onaning ko`p asabiylashishi;

- onaning saviyasi past bo`lib turli bachkana teleko`rsatuvlarni tomosha qilishi va h.k.

Farzand tug`ilgan kunidan boshlab dastlab faqat oila muhitida (bog`cha yoshigacha – 1-3 yoshgacha) tarbiyalanadi. Yangi tug`ilgan bola diqqat bilan tarbiyalanishga muhtojdir. Bu davrda bolani to`g`ri ovqatlantirish, to`g`ri parvarish qilish juda muhim. Bir yoshgacha bo`lgan davrda bola o`ziga yaqin kishilarni ko`rganda xursand bo`ladi, rangdor o`yinchoqlarni xush ko`radi. Bu davrda bolani alla orqali, ma`noli erkalashlar orqali, chiroyli o`yinchoqlar orqali tarbiyalab borish lozim. (5-ilova)

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish lozim bo`ladi:

- uzluksiz olib boriladigan ta`lim-tarbiyaning har bir bo`g`inida beriladigan ma`naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadga erishish yo`llarini izlab topish;

- ta`lim jarayonida turli ma`naviy va ma`rifiy ta`sir vositalaridan foydalanish orqali ma`naviy- axloqiy tarbiya berishni muntazam ravishda jamiyat taraqqiyotiga moslab takomillashtirib borish;

- ma`naviy-axloqiy tarbiya berishda tarbiyalanuvchining yoshi va dunyoqarashini hisobga olgan holda zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- talaba-yoshlarning ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida anketa so`rovlarini o`tkazib, natijalarini qayd etib borish;

- ma`naviy-axloqiy sifatlarga ega bo`lgan barkamol shaxsni tarbiyalashga erishish

va h.k.

Bular asosida talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi va yetuk mutaxassis bo'lib Ona Vatanga xizmat qilishi uchun ular oldiga quyidagi **talablar** qo'yiladi. Agar ular:

- o'z o'ziga talabchan bo'lishsa;
- o'zini nazorat qila olishsa;
- o'zgalarni hurmat qila olishni o'rgansa;
- doimo kamtarlik yo'lini tuta olsa;
- o'ziga bo'lgan ishonchi yuqori bo'lsa;
- iboli-hayoli bo'lishsa;
- halol va adolatparvar bo'lishsa;
- samimiy va beg'araz bo'lishsa;
- o'zgalar mehnatini qadrlay olishsa;
- kasbiy va ma'naviy bilimlarni doimo egallab borishsa;
- o'z manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'ra olsa;
- kamolga erishishga intilsa;
- barcha axloq qoidalariga bo'ysunsa;
- intellektual salohiyatli barkamol shaxs, yetuk mutaxassis bo'lishga astoydil intilsa, harakat qilsa ular axloqiy yetuk shaxs bo'lib kamol topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni // “Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyoti poydevori”-Toshkent: “O`zbekiston”, 1997. - 29b.
2. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” // Oliy ta’lim (me’yoriy huquqiy va uslubiy hujjatlar to’plami). -Toshkent: “O`zbekiston” 2004.-12 b.
3. Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi. –O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o`n olti yilligiga bag’ishlangan tantanali majlisdagi tabrik so`zi, 1997 yil 5 dekabr.- Karimov I. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo`lida: T.6 – T.: „O`zbekiston“, 1998 – 400 b.
4. Karimov I.A. Ozod va odob Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent, „O`zbekiston“, 2000. – 20b.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: “O`zbekiston”, 1998. - 64 b.
6. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T.2. -T.: “O`zbekiston”, 1996. -366 b.

7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqini - xalq, millatini - millat qilishga xizmat etsin. -T.: "O`zbekiston", 1998 -30 b.
8. Karimov I.A. Ma'naviyat yuksalish yo`lida. -T.: "O`zbekiston", 1998. -480 b.
9. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda -T.: "O`zbekiston", 1999. - 248 b.
10. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: "O`zbekiston", 1997.-326 b.
11. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: "O`zbekiston", 1998.-687 b.
12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir // Ma'rifat. – Toshkent: 30.01.2010, - 5b.
13. Abdurauf Fitrat. Oila. - T.: "Ma'naviyat" 2000. -112 b.
14. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T. "Sharq" 1993. - 224 b.
15. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar .-T. "O`qituvchi", 1973. -174 b.
16. Azizova T.M. Zamonaviy o`zbek oilalarida o`smir bolalar shaxsi shakllanishi. T.: // Xalq ta'limi. 1998. 3-son. 14 b.
17. Azizov G., Jabborov A. Musulmoncha nikohning afzalliklari. /O`zbek oilasining entopsixologik muammolari mavzusidagi Resp. ilm. amal. anj. ma'ruz. qisqacha bayoni. -T., 1993. 139 b.
18. Alimov X. Milliylik va ijtimoiy ruhiyat .T. "O`zbekiston" 1992.
19. Alisher Navoiy. Mahbubul qulub.Tanl.as.to`p.13t. - T. "O`qituvchi" 1966.- 244 b.
20. Ashurov A. Avestodan meros marosimlar.T. "Fan" 2001.-32 6.
21. Bestujev - Lada I.V. Semya vchera, segodnya, zavtra. -M.: Znanie. 1979. -94 b.
22. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. -T.: "Cho`lpon", 1995.-176 b.
23. Buyuk siymolar, allomalar. I I kitob./Nashrga tayyorlovchi M.Xayrullaev. - T., 1996. -120b.

24. Bo`rieva M.R. O`zbekistonda oila demografiyasi. - T.: "Universitet", 1997. - 238 b.
25. Bo`rieva M.R. O`zbekistonda oila demografiyasi. - T.: "Universitet", 1997. - 182 b.
26. Grebennikov I.V. Osnovo` semeynoy jizni. -M.: "Prosvehenie", 1991. -158 s.
27. Davletshin M.G., Shoumarov G'.B. Zamonaviy o`zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari. / O`zbek oilasining etnopsixologik muammolari. Resp. Ilm. amal. anj. ma`ruza qisqacha bayoni. -T., 1993. 5 b.
28. Irisov A. Abu Ali Ibn Sino: Hayoti va ijodiy me`rosi. -T.: "Fan", 1980. -208 b.
29. Kaykovus. Qobusnoma. -T.: "Istiqlol" 76 b.
30. Karimova V.M. O`zbek yoshlarida oila to`g`risidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanishi: Psixol. fanl. dokt. ... diss. Farg`ona, 1994. -322 b.
31. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O`quv qo`llanma. – T.: 2006 – 142 b.
32. Umarova M.M. O`smirlarda oilaviy qadriyatlar to`g`risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis.... psixol.fan.nomzodi: 19.00.05. – T.: 2004. – 166 b.
33. Usmonov M., Hamidov X. Donishmandlar oila haqida. – T. "Cho`lpon" 1999. – 62 b.
34. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent: "Fan", 2006, 284 bet.
35. Hasanboyev J., To`raqulov X.A., Pedagogika nazariyasi fanidan izohli lug`at. – Toshkent: "Fan", 2008. – 200 b.

Ilovalar

1-ilova

« Sana _____ F.I.Sh. _____

Tug'ilgan yilingiz _____ Ma'lumotingiz _____

Lavozimi va mashg'ulotingiz _____

Oilada farzandlar soni _____

Ijtimoiy kelib chiqishingiz: (keragini belgilang)

■ ziyoli

■ dehqon-fermer

■ ishchi-hunarmand

■ tadbirkor

■ oilaviy tadbirkor

■ uy bekasi

■ boshqalar (yozing) _____

Yashash sharoitingiz:

a) yaxshi -b) o'rta v) yomon

Oila turi:

- alohida yashaydigan (nuklear oila)
- bo'linmagan katta oila» (Ilova 3).

1-jadval

O'rganilgan oilalarning ijtimoiy-demografik tasniflari (№=91)

Oila tasnifi	Shahar oilasi (№=45)	Qishloq oilasi (№=46)
1. Oilada farzandlar soni	2,1	4,5
2. Ota-onaning o'rtacha yoshi	39	40
3. Ijtimoiy kelib chiqishi:		
■ ziyolilar	20	15
■ dehqon-fermerlar	1	11
■ ishchi-xunarmandlar	12	10
■ tadbirkorlar	5	3
■ oilaviy biznes	6	4
■ boshqalar	1	3
4. yashash sharoiti:		
■ yaxshi	45%	32%
■ o'rta	50%	60%
■ yomon	5%	8%
5. - nuklear oilalar soni	30	22
- bo'linmagan katta oila	5	10

2-ilova

**O'spirin yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini
shakllanganlik darajasini aniqlashga doir so'rovnomalar**

I. Shaxs haqida umumiy tushuncha

F.I.Sh. _____

jinsi _____ yoshi _____

o`qish joyi _____

1. Sizningcha, “axloq” nima? _____
2. Sizning fikringizcha “ma’naviyat” tushunchasi qanday lug’aviy ma’noni anglatadi? _____
3. Shaxsan siz “ma’naviyatli shaxs” deganda kimni tushunasiz? _____
4. “Ma’naviy barkamol shaxs” tushunchasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan qanday tariflangan. (Asarlari nomini keltirish) _____
5. Sizningcha axloqli shaxs qanday fazilat va xislatlarga ega bo`lishi lozim? _____
6. O`zbekiston Respublikasi “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi g`oyalari qanday asosiy maqsadlarni ro`yobga chiqarishga yo`naltirilgan? _____
7. Siz o`zingizni axloqli shaxs deya olasizmi? _____
8. Ta’lim jarayonini har tomonlama barkamol, ma’naviy-axloqiy tarbiyali shaxsni shakllantirishga yo`naltirish zarur deb hisoblaysizmi? _____
9. Shaxs rivojlanishi deganda nimani tushunasiz? _____
10. Oila muhiti farzandlarning barkamol, har tomonlama yetuk, axloqli bo`lib shakllanishida muhim rol o`ynaydimi? _____

3-ilova

So`rovnoma natijalari

- 1. Sizningcha, “axloq” nima?**

- 15 ta – muomila qilish
- 10 ta – fazilatlar yig'indisi
- 11 ta - yurish-turish
- 12 ta – har bir insonning o`zini tutishi
- 8 ta – xulq-odob
- 2 ta - yozilmagan, ammo bo`ysunadigan qoidalar yig'indisi
- 2. *Sizning fikringizcha “ma’naviyat” tushunchasi qanday lug’aviy ma’noni anglatadi.***
- 23 ta – fazilatlar majmuasi
- 13 ta – o`qib o`rganish
- 9 ta – g’oyalar tizimi
- 18 ta – har tomonlama mukammal fikr
- 3. *Shaxsan siz “ma’naviyatli shaxs” deganda kimni tushunasiz.***
- 6 ta – javob yo`q
- 8 ta – bilmadim
- 13 ta – lider
- 21 ta – o`qituvchi
- 5 ta – prezidentni
- 8 ta - bilimdon
- 6 ta – yetuk, komil, mukammal
- 4. *“Ma’naviy barkamol shaxs” tushunchasi O`zbekiston respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan qanday tariflangan. (Asarlari nomini keltirish)***
- 23 ta – Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch
- 12 ta – ongli ma’naviy, axloqiy inson
- 15 ta – bilmadim,
- 17 ta – javob yo`q
- 5. *Sizningcha axloqli shaxs qanday fazilat va xislatlarga ega bo`lishi lozim.***
- 25 ta – hammaga o`zining xulqi bilan namuna bo`la olishi lozim

- 12 ta – yaxshi bilim va fazilatga ega
 10 ta – bilimdon, sportchi, odobli bo`lishi kerak
 20 ta – aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik rivojlangan
- 6. *O`zbekiston Respublikasi “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi g’oyalari qanday asosiy maqsadlarni ro`yobga chiqarishga yo`naltirilgan***
- 13 ta – javob yo`q
 9 ta – barkamol avlodni tarbiyalash
 26 ta – o`quvchilarga ta’lim-tarbiya berish
 19 ta – adolatli va vatanpavar shaxs
- 7. *Siz o`zingizni axloqli shaxs deya olasizmi?***
- 14 ta – bilmadim
 15 ta – ha
 16 ta –javob yo`q
 22 ta – qisman
- 8. *Ta’lim jarayonini har tomonlama barkamol, ma’naviy-axloqiy tarbiyali shaxsni shakllantirishga yo`naltirish zarur deb hisoblaysizmi***
- 35 ta – ha
 20 ta –bilmadim
 12 ta –yo`q
- 9. *Shaxs rivojlanishi deganda nimani tushunasiz***
- 8 ta – javob yo`q
 17 ta – har tomonlama yetuk
 15 ta – ta’lim-tarbiyani
 9 ta – ilg’or
 8 ta – aqllilik
 10 ta – o`sib rivojlanish
- 10. *Oila muhiti farzandlarning barkamol, har tomonlama yetuk, axloqli bo`lib shakllanishida muhim rol o`ynaydimi?***

19 ta – ha

18 ta – o`qituvchilarning tarbiyasi ko`proq

13 ta – qisman

12 ta – javob yo`q

5 ta – bilmadim

4-ilova

Shaxsning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantiruvchi treninglar.

«Botqoqlik».

Buning uchun kartondan yasalgan o`rtacha kattalikda «likopchalar» kerak bo`ladi. Ularning soni 9 ta bo`lishi kerak. Guruh a`zolari qator bo`lib, birin-ketin tarelkalarga oyoq qo`yib botqoqlikdan o`ta boshlaydilar, atrofda esa (ikkinchi guruh a`zolari) qaroqchi timsohlar yuradi. Timsohlar tarelkalarni olib ko`yishga shay turadilar, maqsad har bir guruh a`zosi tarelkalardan oyoq uzmasligi, hech bo`lmaganda bir oyoqning uchi bilan ularni bosib turishi kerak. Agar guruh a`zolari ittifoq bo`lib harakat qilsalar, mag`lubiyatsiz botqoqlikdan o`tadilar, bironta likopchani timsohga bermaydilar.

«Avtobus».

Ishtirokchilar ikki guruhga bo`linadilar. Boshlovchi ular ikkita avtobusda joylashishlari kerakligini aytadi. Avtobus o`rindiqlari sifatida stullardan foydalanish mumkin. Ishtirokchilar stullarga bir-birlariga qarama-qarshi joylashib o`tiradilar. Hamma ikki avtobusga joylashib bo`lgach, boshlovchi birinchi avtobus yurmasligini, u buzilib qolganligini ma`lum qilib, hamma ikkinchi avtobusga o`tishi kerakligini aytadi. Bu o`yin boshlovchiga guruhga ishtirokchilar orasida bir-biriga ishonchni rivojlantirishga yordam beradi.

Toping-chi, bu kim?

Buning uchun har bir ishtirokchi shu guruh a`zolaridan kimningdir 10 tadan kam bo`lmagan xarakter xususiyatlarini qog`ozga yozadi, lekin kim haqda yozganligini, hatto o`g`il yoki qiz bolaligini ham hech kimga aytmaydi. Qolgan ishtirokchilar yozilgan xarakter xususiyatlariga qarab gap kim haqda

ketayotganligini topishlari lozim. Agar guruh gap kim haqida ketayotganligini qanchalik tez topsa, uni ta'riflagan ishtirokchi mohir odam sifatida rag'batlantiriladi.

«Orqama-orqa».

Ishtirokchilar xona bo'ylab harakat qiladilar. Boshlovchi tana a'zolaridan birining nomini aytadi, masalan, «orqa» deydi. Shunda ishtirokchilar o'zlariga juft topib, bir-biriga suyanishlari kerak. O'ziga sherik topa olmagan ishtirokchi esa o'rtaga chiqadi va o'yinni davom ettirish uchun boshqa tana a'zolarining nomini aytadi (masalan qo'l, oyoq, bosh barmoqlar, elka va hokazo).

“G'aram, tepalik, so'qmoq».

Ishtirokchilar 6-10 kishilik guruhga bo'linadilar. Har bir guruh a'zolari bir-birlarining qo'llaridan ushlab, davra quradilar. O'yin ishtirokchilarning o'ng tomonga qarab aylanishi bilan boshlanadi. Boshlovchi tomonidan «So'qmoq» deyilganda ishtirokchilar bir qator bo'lib o'tirib olishlari kerak. 'G'aram» deyilganda har bir guruh 2 kichik guruhga bo'linadi va bir-biriga yuzma-yuz bo'lib, qo'llarini birlashtirib yuqoriga ko'taradilar. «Tepalik» deyilganda esa, ishtirokchilar yana bir qator bo'ladilar, biroq bunda guruhdagi bir ishtirokchi tursa, ikkinchisi o'tirib oladi, natijada tepaliklar ko'rinishini aks ettiradilar. Vazifani boshqalardan oldin va yaxshi bajargan guruhga 1 ball beriladi. Shunday qilib eng ko'p ball jamg'argan g'olib deb topiladi.

“Qayerga, qayerga».

Guruh a'zolarining har biri raqam bilan nomlanadi. Ishtirokchilar o'z raqamlarini eslab qolishlari kerak. Shundan so'ng ular aralashib ketishadi. Boshlovchi o'rtada turib ikkita sonni aytadi. Shu raqamlar bilan nomlangan ishtirokchilar «qaerga, qaerga» deb bir-birlarining o'rinlariga o'tib olishlari zarur. Boshlovchi ham bu orada ochiq qolgan joyni egallashga urinadi. Joysiz qolgan ishtirokchi o'yinni davom ettiradi.

«Qayta tuzilish».

Ishtirokchilar 2 guruhga bo'linadilar va boshlovchi ishorasi bilan turli

belgilarga ko`ra tezroq safga tizilishga harakat qiladilar (masalan, oyoq kiyimining o`lchami, tug`ilgan kuni va h.k.lar hisobiga olinishi mumkin).

«Ishonch paravozi».

Barcha ishtirokchilar bir qatorga tizilishadi. Birinchi ishtirokchidan tashqari guruh a`zolarining hammasi ko`zlarini yumishadi va bir-birlarining belidan ushlab olishadi. Birinchi ishtirokchining vazifasi — «paravoz»ni xona bo`ylab to`siqlar (yo`llar) orasidan olib yurish, qolganlar esa oldindagi ishtirokchining harakatlariga mos ravishda to`siqlar orasidan urinmay-surinmay o`tishlari darkor.

«Yomg`ir».

Ishtirokchilar aylana ko`rinishida turib olishadi Bunda jimlik hukm surishi kerak. Boshlovchi hozir siz yomg`ir tovushini eshitasiz, lekin buning uchun mening harakatlarimni takrorlashingiz kerak», — deydi. Boshlovchi o`rtada turib har bir ishtirokchining oldiga keladi va uning ko`ziga qarab, muayyan harakatlarni bajarib ko`rsatadi. Har bir ishtirokchi toki boshlovchi butun davrani aylanib kelib boshqa harakatni ko`rsatmagunicha shu harakatni bajarib turishi zarur.

Harakatlar:

- Kaftlarni bir-biriga ishqalash;
- Barmoqlarni qirsillatish;
- Tizzalarni shapatilash;
- Tizzalarni shapatilab, oyoqlarni do`pillatish;
- Tizzalarni shapatilash;
- Barmoqlarni qirsillatish.

«Ko`rinmas sovg`a».

Ishtirokchilar davra qurib olishadi. Boshlovchi qo`lida narsani yasash mumkin bo`lgan ko`rinmas loy borligini va ishtirokchilar undan sovg`a yasab, o`ng tomonidagi ishtirokchiga uzatishlari lozimligini aytadi. Sovg`a yasaladi va qabul qilib olingach, yana boshqatdan sovg`a yasalib, navbatdagi ishtirokchiga taqdim etiladi. Shu tariqa barcha «sovg`a» olmagunicha bu harakatlar takrorlanadi. O`yin oxirida kimning nima sovg`a qilgani va sababi so`raladi.

«Yashirin lider».

Guruh a'zolaridan biri xonadan chiqib turadi. Qolganlardan birini — «lider»ni tanlashadi. Qolgan ishtirokchilarning vazifasi: lider muayyan harakatlarni bajarganda ular ham bu harakatlarni takrorlashi kerak. Xonadan chiqarib yuborilgan ishtirokchini xonaga taklif qiladilar, uning vazifasi: «lider» kimligini aniqlashi kerak. Agar to'g'ri topsa, lider bilan o'rin almashadi.

“Sakrash”.

Guruh ishtirokchilari yuzlarini bir tomonga o'g'irgan holda bir qator turadilar.

Yo'riqnoma: «Men «bir, ikki, uch», deb sanayman va har «uch» deganimda siz quyidagicha holatlarda sakrashingiz mumkin:

1. Joyingizda turgan holda.
2. Sakrab o'ng tomonga o'girilish.
3. Sakrab chap tomonga o'girilish.

Topshiriqni bir-birimiz bilan gaplashmasdan, jimlikda bajaramiz. Mashq hamma ishtirokchilar bir tomonga qarab turmagunlaricha davom etaveradi. Mashqni bajarishda o'zaro ko'rsatmalar berilmasligiga, ayrim ishtirokchilarning kelishib olmasliklariga va bir ishtirokchining buyrug'i bilan biror tomonni tanlamaslikka e'tibor berish kerak.

Mashq guruhni jipslashtiradi, kayfiyatni ko'taradi, qizg'inlikni, tanglikni yumshatadi. Shuningdek, guruh qatnashchilarining birgalikdagi faoliyatda kelishib olishlariga va umumiy qarorga kelishlariga imkon beradi.

O'yin oxirida guruhga beriladigan savollar: «Guruhning oldiga qo'ygan vazifani bajarishda nima yordam berdi?», «Vazifani tezroq bajarishga nima xalaqit berdi?», «Vazifani tezroq bajarishga nimalar yordam berishi mumkin edi?» va h.k.

Barmoq tashlash.

Guruhning hamma ishtirokchilari doira shaklida o'tiradilar.

Yo'riqnoma: «Hozir hammamiz birgalikda quyidagi topshiriqni hal etishimizga to'g'ri keladi: Men «bir, ikki, uch», - deb sanayman va hamma tezlik bilan, bir vaqtning o'zida bir-biri bilan kelishmasdan, gaplashmasdan, qo'ldagi

panjalarni xohlagan miqdorda tashlaydi». Mashq hamma bir xilda barmoq tashlamaguncha davom etaveradi. Davraning hamma ishtirokchilari bir xildagi barmoqlar sonini tashlaganda mashq tugagan hisoblanadi.

Mashqlar turlicha o'tishi mumkin. Ba'zan guruhga vazifa echilmaguncha o'ttiz martagacha takrorlash talab qilinadi, ba'zan to'rt-besh marta etarli bo'ladi. Har qanday holatda ham, mashq muhokama qilish uchun boy ma'lumotlar beradi.

Chigilni echish.

Qatnashchilar doira shaklida turadilar.

Yo'riqnoma: «Kelinglar, bir-birimizga yaqinroq turib olamiz, kichikroq doira hosil qilib, barchamiz qo'llarimizni doira o'rtasiga cho'zamiz. Mening ishoram bilan hammamiz bir vaqtda qo'llarimizni ushlaymiz. Shunday ushlashimiz kerakki, har birimizni qo'limiz orasida yana kimnidir qo'llari bo'lishi kerak. Shuning uchun yonimizdagi kishi qo'lini emas, keyingi qarshimizdagi odamnikini ushlashga harakat qilaylik. Ikkala qo'lingiz bilan bir odamning ikkala qo'lini ushlamang — bir qo'lingiz bilan bir ishtirokchining, ikkinchi qo'lingiz bilan esa ikkinchi ishtirokchining qo'lini ushlang. Shunday qilib boshlaymiz. Bir, ikki, uch».

Shundan so'ng trener barcha qo'llar bir-birini ushlashganiga ishonch hosil qilganidan so'ng, guruh qatnashchilariga qo'llarini qo'yib yubormay, mashqni boshlash, ya'ni «chigilni yozishni» taklif qiladi. Trener ham bevosita mashqda qatnashadi, ammo bu paytda turli echimlar taklif etmaydi. Mashq bajarish davomida, guruhda mashqni echish qiyinligi yoki mumkin emasligi to'g'risida turli fikrlar aytiladi. Bunday paytda trener xotirjamlik bilan, bu hal qilinishi mumkin bo'lgan vazifa ekanligini, chigal echilishi mumkinligini ta'kidlashi kerak. Mashq uch variantning biror ko'rinishida ijro etilishi mumkin.

Guruhning barcha qatnashchilari bir doira ichida turadilar. Bu paytda kimdir orqasiga, yana kimdir yoniga qarab turishi mumkin, asosiysi doira holati saqlanib qolishi kerak.

Agar guruh katta bo'lsa, unda ikki yoki undan ortiq mustaqil doiralar tashkil qilinishi mumkin.

Guruh qatnashchilari zanjir bo`lib, bir-birlariga bog`lanib doira hosil qiladilar. Bu mashqni bajarish uchun guruh qatnashchilariga vaqtni 3-5 minutdan 20 minutgacha belgilash mumkin. Ba`zan guruhlar zanjirni echishdan bosh tortishlari mumkin.

Mashq yakunlangandan so`ng, guruhga bunday savollar bilan murojaat qilinadi: «Mashqni bajarishga nima yordam berdi?», yoki «Mashqni tezroq bajarish uchun yana nima qilsa bo`lardi?». «Bu mashqni tezroq bajarish uchun nima xalaqit berdi?». Bizning nazarimizda bunday savollar berish maqsadga muvofiqdir. Odatda ishtirokchilar, o`yin muhokamasida shunday fikrga keladilar: «Bunday mashqni muvaffaqiyatli hal etish uchun hamkorlik, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo`lish, barcha o`zini erkin his etishi, barcha kishini fikrlarini inobatga olish va mashq jarayonini diqqat bilan kuzatib borish kerak ekan». Bu mashq guruhni biriktirishga, shuningdek og`ir kechgan kunni maroqli yakunlash imkonini beradi. Mashqni ehtiyotkorlik bilan bajarish talab qilinadi, chunki u ishtirokchilar orasida jismoniy bog`lanishni taqozo etadi. Agar trener o`yin davomida biror qatnashchining toliqqanini sezsa, uni o`yindan ozod qilishi mumkin.

5-ilova

